

<b>KIRISH.....</b>	<b>2</b>
<b>I BOB.O‘zbek va koreys adabiyotining rivojlanish bosqichlari.</b>	
<b>1.1.O‘zbek adabiyotining shakllanish tarixi.....</b>	<b>7</b>
<b>1.2.Koreys adabiyotining shakllanish tarixi.....</b>	<b>18</b>
<b>II BOB.O‘zbek va koreys adabiyotida g‘oya va fikrlarning o‘xshash jihatlari.</b>	
<b>(“Alpomish” dostoni, “Jumong” dostoni, xalq maqollari va Li Mun Yol,O‘tkir Hoshimov va boshqa ijodkorlar misolida)</b>	
<b>2.1. “Alpomish” va “Jumong” dostonlarining tarbiyaviy ahamiyati.....</b>	<b>21</b>
<b>2.2.Xalq maqollarida aks etgan tarbiyaviy tushunchalar.....</b>	<b>30</b>
<b>2.3. Har ikki davlat zamonaviy adabiyotining ta’lim tizimida tutgan o‘rni...33</b>	
<b>III.BOB.Ishning amaliyotga tatbiqi.</b>	
<b>3.1. “O‘qitish” va “O‘rgatish” tamoyillari.....</b>	<b>49</b>
<b>3.2.Ochiq dars ishlanmasi.....</b>	<b>58</b>
<b>UMUMIY XULOSA VA METODIK TAVSIYALAR.....</b>	<b>64</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>66</b>

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, respublika ma‘daniy hayotida o‘ziga xos ma‘naviy muhit maydonga keldi. Bu jaroyonda ijod ahlining o‘tkir so‘zi alohida ahamiyat kasb etishi haqida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov: “Barchamizga a‘yonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma‘naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko‘rmagan, duch kelmagan bugungi jiddiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o‘ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonatga, mehr-oqibatga qaratilgan haroratli so‘zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda “,- deb ta‘kidlaydi<sup>1</sup>. Mustaqillik tufayli ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, ma‘naviyat sohasida misli ko‘rilmagan ishlar amalga oshirildi. Uzoq tarix va boy an‘analarga ega bo‘lgan madaniy merosimiz o‘z tabiiy sarchashmalari asosida o‘rganilishga barcha imkoniyatlar yaratildi. Xalq og‘zaki ijodi, uzoq asrlik mumtoz adabiyotimiz va jahon adabiyoti durdonalari bilan erkin tanishish natijasida adabiy jaroyonda katta yuksalishlar yuzaga keldi. Tarixiy tajribalardan foydalanish, jahon erishgan adabiy-estetik tuyg‘ularni o‘zlashtirish, yangi davr, xususan, mustaqillik davri adabiy jaroyonining asosiy fonemenini belgilab berishga xizmat etdi. Ijod olamidagi an‘analar, tajribalar va yutuqlar keyingi davrlar o‘zbek adabiyotining erkin taraqqiy etishiga poydevor bo‘lib xizmat etdi.

Ma‘lumki, ma‘naviyat, axloq, estetik tuyg‘uni shakllantirishda adabiyotchilik xizmat etadigan vositaning o‘zi yo‘q desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Shu bois qadimdan, adabiyotga, badiiy so‘z san‘atiga e‘tibor nihoyatda katta bo‘lib kelgan. Birgina badiiy so‘zning qimmatini haqidagi sharq va g‘arb allomalarining, arbob-u siyosatdonlarning, faylasuf-u ijodkorlarning aytgan fikrlarini jamlasak, badiiy adabiyotning nufuzi nihoyatda ardoqli ekanligini

---

<sup>1</sup> Karimov I.O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda.Xalq so‘zi,1999.15-aprel

anglashimiz tabiiy. Asrimiz boshidayoq ma'rifatparvar Cho'lpon "Adabiyot yashasa- millat yashar" degan shiori bilan adabiyotning millat va xalq taqdiridagi o'rnini belgilab berganligini ko'ramiz. Bunday qarashlarni barcha ma'naviyat fidoyilari ta'kidlab o'tganlar. Ayniqsa, yangi asr bo'sag'asida birinchi prezidentimiz Islom Karimovning "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga e'tibor" degan purma'no, hikmatli so'zlari badiiy adabiyotning millat, xalq va insoniyat taqdiridagi asosiy xizmatini ko'rsatib berdi.

Mamlakatimizda qo'lga kiritilgan mustaqillikdan so'ng ko'plab sohalarga, xususan, madaniyat va adabiyotni o'rganishga qiziqish ortdi. Shu jumladan, xorijiy mamlakatlar tili va adabiyotiga ham e'tibor kuchaydi. Chunki "keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish uchun qulay zamin yaratdi".<sup>2</sup> Jahon xalqlari madaniy va ma'naviy boyliklar bilan tanishish esa, o'z milliy merosimizni munosib baholash imkonini beradi. Bu borada adabiyotlarni qiyosiy o'rganish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Qiyosiy adabiyotshunoslik, avvalo, yozuvchi adabiy mahoratini tizim shaklida ochib berishga zamin hozirlaydi. Shuningdek milliy adabiyotdagi yoki jahon adabiyotidagi mavqeyini belgilash, yozuvchining o'ziga xos iste'dodini, mahoratini va yashirin qirralarini bilib olish uchun boshqa bir ijodkorning o'xshash asari bilan qiyoslab o'rganish ham muhim sanaladi. Qiyoslash orqali adabiyotning asl maqsadi ochiladi.

Tabiat va jamiyatda, asosan, takrorlanuvchi, bir-biriga o'xshash yoki o'z tabiati, tuzilishi, mohiyati bilan bir-biriga zid (qarama-qarshi) bo'lgan narsa, hodisalar qiyoslash obyekti bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyotdagi bu hodisa qiyosiy adabiyotshunoslik markazida turadi.

Adabiyotshunoslikda ma'lum bir yozuvchi yoki shoir ijodini milliy va xalqaro adabiy an'analar bilan qiyoslab o'rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Chunki shunday qiyoslashlar orqali yozuvchining ijodiy mustaqilligi va uning

---

<sup>2</sup> Karimov. I O'zbekiston 21 asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997-B.149.

milliy, jahon adabiyoti rivojidadagi oʻrni anglab yetiladi. Yozuvchi ijodining oʻziga xos qirralarini oʻrganishda va anglab yetishda uni boshqa bir ijodkorning oʻxshash asarlari bilan qiyoslab tahlil qilish muhimdir. Jahon xalqlari bilan iqtisodiy, madaniy va adabiy aloqalar kundan-kunga rivojlanib borayotgan hozirgi davrda adabiyotlarni, adabiy oqim, yoʻnalish va yozuvchilar ijodini qiyoslab oʻrganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu bizga boshqa (qiyoslanayotgan) adabiyotnigina emas, oʻz adabiyotimizni ham yaxshiroq anglashga, uning nozik jihatlarini ilmiy-estetik tahlil qilishga yordam beradi.

Maʼlumki, jahon xalqlari oʻrtasida tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda aloqalar, ijobiy oʻzlashtirishlar mavjuddir. Shuning uchun ham bu jaroyonni tahlil qilish hech qachon oʻz dolzarbligini yoʻqotmaydi, balki mamlakatlar oʻrtasida iqtisodiy, madaniy sohalarda integratsiya avj olayotgan XXI asr sharoitida yanada dolzarb hisoblanadi.

**Mavzuning oʻrganilganlik darajasi.** Hayot va jamiyatdagi barcha oʻzgarishlarning asosi inson tafakkuridir. Tafakkurda oʻzgarish boʻlmas ekan, ijtimoiy hayotda ham oʻzgarish boʻlishi dushvor. Istiqloq davrining yuzaga kelishi ham shuning mahsulidir. Maʼlumki, oʻz navbatida har bir jamiyat oʻz muammosini yuzaga keltiradi, shunga muvofiq insoniyatning hayotga qarash tarzini ham oʻzgartiradi. Bu ruhiyat bilan bogʻliq masaladir. Yetmish yil davomida, maʼnaviyat, milliy axloq asosi boʻlgan dinidan, oʻtmishidan, oʻzining kim boʻlganligini namoyon qilish qudratiga ega boʻlgan tarixi, milliy qadriyatlaridan mahrum boʻlgan xalq istiqloqdan keyin bunga muyassar boʻlgach, unda oʻzidan, oʻz millatidan gʻururlanish tuygʻusi yuzaga keldi. Chunki, u ruhsizlikdan qutuldi, ruhi ozod, hur boʻldi. Ruhi hur odamning yuragi botir boʻladi. U hamma narsani yorqin koʻradi, mohiyatini toʻgʻri anglaydi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ushbu tadqiqotning maqsadi oʻzbek va koreys adabiyotini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning oʻxshash va farqli jihatlarini aniqlab, amaliyotga tatbiq etish, maktab oʻquvchilari va kitobxonlarni koreys adabiyoti namoyondalari bilan tanishtirish. Shuningdek, koreys adabiyotidagi

tarbiyaviy masalalarni o‘zbek adabiyoti darsliklariga kiritishning ijobiy tomonlarini tushuntirish.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqotning bosh vazifasi o‘zbek va koreys adabiyotidagi tarbiyaviy masalalarni tadqiq qilish. Shunga ko‘ra tadqiqot ishini yoritish davomida:

- O‘zbek va koreys adabiyotidagi o‘ziga xoslik masalalarini tadqiq qilish;
- Poetik obrazlar masalasiga yondashuvlarni aniqlash;
- Poetik obrazlar masalasini “Alpomish” va “Jumong” dostoni, xalq maqollari O‘tkir Hoshimov, Li Mun Yol, va boshqalarning asarlari asosida o‘rganish;
- O‘zbek va koreys adabiyotidagi obrazlarning mushtarak va farqli jihatlarini oydinlashtirish;
- O‘zbek va koreys yozuvchilari asarlarining o‘ziga xosligi va uyg‘unligini yoritish.

**Tadqiqotning obyekti.** O‘zbek va koreys adabiyotini ta’lim bosqichlarida o‘rganish.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** Ishda O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning ma’naviyat, ma’rifat, milliy va umumbashariy qadriyatlar to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari, milliy til va madaniyatning rivojlanish tarixi haqidagi qarashlari hamda qiyosiy tahlilga oid qilingan tadqiqotlar metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, analiz va sintez, mantiqiylik kabi metodlar asosida tahlillar olib borildi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** O‘zbek va koreys yozuvchilari asarlaridagi tarbiyaviy masalalar ilk bor ilmiy tahlilga tortilayotganligi bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi hisoblanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy qimmatini o‘zbek va koreys adabiyotida tarbiyaviy masalalarni qiyosiy o‘rganilishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, tadqiqotning xulosalari va tahlil

materiallari o‘zbek va koreys adabiyotida poetik obrazlarning qiyosiy tahlili masalalariga oydinlik kiritadi, ta’lim bosqichlarida koreys yozuvchilarining asarlarini o‘rganishda manba bo‘la oladi. Ushbu mavzuga doir dars ishlanmalarini yaratishda amaliy material sifatida xizmat qiladi, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda tadqiqot materiallaridan unumli foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** BMI Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasida yig‘ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Tadqiqot natijalari bo‘yicha Shayxontohur tuman XTB tasarrufidagi 34-sonli umumta’lim maktabida ma’ruza qilindi va ochiq dars o‘tkazildi. (Namunaviy dars ishlanmasi ilova qilindi).

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 68 sahifani tashkil qiladi.

## **I BOB.O‘zbek va koreys adabiyotining rivojlanish bosqichlari.**

### **1.1.O‘zbek adabiyotining shakllanish tarixi.**

O‘zbek adabiyoti o‘zining mazmundorligi,tarixiy qimmatini bilan ajralib turadi.Ham nazm, ham nasr,ham publitsistika bu millat asarlarini maroqli mutolaa qilishga chorlaydi.O‘zbek adabiyoti o‘zining qadimiy ildiziga,rivojlanish bosqichiga ega.Millat adabiyotining shakllanish tarixidan kelib chiqib uni quyidagi davrlarga bo‘lib chiqish mumkin.

Milodiy 7 asrgacha:

\*. „Avesto“ — jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir.

\*.Monyilik tavbanomasi. Moniylik qadimgi turkiy xalqlar e’tiqodida alohida oqim bo‘lib, „Xuastuanift“ („Monyilik tavbanomasi“) uning nazariy manbasi va diniy yodgorligidir. Bu yodgorlik V-VI asrlarda qadimgi uyg‘ur qavmlarida shakllangan.

\*.O‘rxun-Enasoy obidalari V-VII asrlarda qadimgi turk tilidagi va yozuvidagi tarixiy yodgorlik sifatida qadrlil.

\*.Ahmad YassaviyIlk turk mutasavvufi, yassaviylik (jahriylik)tariqatining asoschisi, orifona she’riyat boshlovchisi. 11 asrning so‘ngida Sayram qishlog‘ida Shayx Ibrohim oilasida tug‘ilgan.

\*. „O‘g‘uznoma“dostoni turkiy xalqlarning kitobiy eposlaridan biridir. Turkiy xalqlar tarixida ikkita kitobiy doston bo‘lib, „Dadaqo‘rqt kitobi“va„O‘g‘uznoma“dir.

\*.Mahmud Qoshg‘ariy. Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al–Qoshg‘ariy, qomusiy olim, fiqh va hadis ilmining bilimdoni.Qoshg‘arda tug‘ilgan (sanasi noma’lum), qoraxoniylar davlatining poytaxti Bolasog‘unda yashagan.„Devonu lug‘otit-turk“asari (1068) bilan turkshunoslik faniga asos solgan. „Devon“da tilga

olingan, „Javohirun-nahvifi lug‘atit-turki“ („Turkiy tillarning nahv qoidalari“) asari bizgacha yetib kelmagan.

\*.Y.X.Hojib dostonnavisi Bolasog‘unda tug‘ilgan, qoraxoniylar saroyida xizmat qilgan. Hijriy 462 (m.1069-70)da yozib tugallangan, „Qutadg‘u bilig“ („Saodatga boshlovchi bilim“) asari qoraxoniylar davlatining mustahkam qaror topishiga xizmat qilgan nizomnomadir. Uch nusxasi (Vena, Qohira va Namangan) mavjud.

\*.Adib Ahmad binni Mahmud Yugnakiy, yirik adib, hadisshunos.

\*.Nosiriddin Rabg‘uziy. Yirik adib va dinshunos. Xorazmning Raboti O‘g‘uz qishlog‘ida tug‘ilgan, u yerda qozilik qilgan. Mo‘g‘ul istilosi davrida yaratilgan birdan-bir yirik asar, „Qisasi Rabg‘uziy“ muallifi.

\*.Sayfi Saroyi. O‘zbek mumtoz adabiyotining iste‘dodli vakillaridan biri. Xorazm yaqinidagi Qamishli qishlog‘ida tug‘ilgan. Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroy shahrida yashagan, hayotining so‘nggi yillarini Misrda o‘tkazgan va u yerda vafot etgan.

\*.Lutfiy XV asr o‘zbek she‘riyati takomilida o‘ziga xos o‘ringa ega, katta iste‘dod sohibi, „Malik ul-kalom“ (Navoiy), tuyuq janrining ustasi.

\*.Xorazmiy. Iste‘dodli shoir, temuriylar davri adabiyotining yirik namoyandasi. Xorazmiy — shoirning adabiy taxallusi, ismi va hayoti voqealari ma‘lum emas. Birgina asari „Muhabbatnoma“ (1353) Sirdaryo bo‘ylarida yozilgan.

\*.Husayniy (Husayn Boyqaro). Taniqli shoir va davlat arbobi. Hirot yaqinida tug‘ilgan. 1469 yildan umrining oxirigacha Xuroson podshohi. Uning hukmdorligi yillarida iqtisodiy va madaniy hayot yaxshilangan. Navoiyning maktabdosh do‘sti va homiysi.

\*.Alisher Navoiy. Ulug‘ o‘zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi. G‘arbda chig‘atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda „nizomi millati va d-din“ (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug‘lanadi.



\*.Zahiriddin Muhammad Bobur.Ulug‘ o‘zbek shoiri, mutafakkir, tarixchi va davlat arbobi; markazlashgan davlat va boburiylar saltanati asoschisi.

\*.Atoyi.Mumtoz she‘riyatda g‘azal janrining taraqqiyotiga hissa qo‘shgan shoir. Balx shahrida yashagan, yassaviylik tariqati shayxlaridan Ismoil otaning o‘g‘li. Mirzo Ulug‘bek saroyga bir qancha shoir va olimlarni taklif etganda, ular orasida Atoyi ham bor edi.

\*.Sakkokiy XV asr she‘riyatining iste‘dodli vakillaridan biri. Mumtoz adabiyot taraqqiyotida g‘azalgo‘y va qasidanavis shoir sifatida mashhur.

\*.Gadoiy.O‘zbek mumtoz she‘riyatining taniqli namoyandasi, 1403-1404 yillarda tug‘ilganligi taxmin qilinadi. Temuriylar xonadonining vakillaridan biri.XVI asr-XIXasrning birinchi yarmi.

\*.Shayboniy.Taniqli o‘zbek shoiri, davlat arbobi, o‘zbekxonlar sulolasining asoschisi, „hazrati imomuz-zamon xalifatur-rahmon“ (zamona imomi va xalifasi) unvoniga erishgan.

\*.Muhammad Solih.O‘zbek epik she‘riyati taraqqiyotida iz qoldirgan iste‘dodli shoir, Shayboniy saroyida „amir ul-umaro“, „malik ush-shuaro“ unvonlarini olgan.

\*.Ubaydiy.Taniqli shoir, davlat arbobi, tasavvuf adabiyotining namoyandasi. Buxoroda tug‘ilgan, Shayboniyxonning jiyani. Buxoro xoni sifatida (1533—1539) mamlakatda obodonchilik va madaniy-ma‘rifiy ishlarni yuksaltirgan.

\*.Abulg‘ozi Bahodirxon.Mashhur adib, tarixchi olim va davlat arbobi, turkiy xalqlar shajarasining yaratuvchilaridan.

\*.So‘fi Olloyor.Yirik o‘zbek adibi, tasavvuf adabiyotining namoyandasi. Samarqandning Minglar qishlog‘ida (1644) tug‘ilgan.

\*.Boborahim Mashrab.Ulug‘ o‘zbek shoiri, tasavvuf adabiyotining yetuk namoyandasi Boborahim Mashrab Mulla Vali oilasida (1653) dunyoga kelgan.

\*.Muhammadniyoz Nishotiy.Taniqli o'zbek shoiri, liro-epik she'riyat taraqqiyotida alohida o'ringa ega. Xorazm (1701)da tug'ildi. Ijodiy merosidan lirik she'rlari va „Husnu Dil“ dostoni yetib kelgan. She'rlari „G'azaliyot va muxammasoti Nishotiy“, „Bayozi mutafarriqa“, „Bayozi majmuai ash'or“ kabi manbalarda jamlangan. Muhammad Yusuf Chokar tomonidan ko'chirilgan devoni (1903) O'RFAShI da (inv.1197, 7013,1117, 1027, 7054) saqlanadi.

\*.Xo'janazar Huvaydo.Iste'dodli shoir, tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi. Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li Chimyonda (1704) tug'ilgan.

\*.Nurmuhammad Andalib.Iste'dodli adib, dostonchilik taraqqiyotida alohida o'ringa ega. Xivada tug'ilgan, Xiva va Buxoro madrasalarida ta'lim olgan. Munis va Ogahiyning„Firdavsul-iqbol“,Bayoniyning„Shajarayi Xorazmshohiy“ asarlarida fikrlar bor.

\*.Shermuhammad Munis.Yirik o'zbek shoiri, tarixnavis, davlat arbobi Shermuhammad Munis Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Avazbiy mirob oilasida (1778) tug'ildi.

\*.Jahon otin Uvaysiy.Atoqli shoira, o'zbek shoirlari murabbiysi Jahon otin Uvaysiy Marg'ilonda tug'ilgan.Otasi Siddiq bobo ikki tilda she'rlar yozgan.

\*.Amiriy(Amir Umarxon).Yirik o'zbek shoiri, adabiy maktab asoschisi, tarixnavis va davlat arbobi.

\*.Nodira(Komila).Taniqli shoira, davlat arbobi. Asl ismi Mohlaroyim, Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida dunyoga keldi

\*.Muhammadsharif Gulxaniy.Taniqli o'zbek adibi, o'zbek adabiyotida satirik maktab yaratuvchilaridan biri. O'ratepada (ayrim manbalarda Namangan viloyatida) tug'ilgan, hayot yillari noma'lum. Turk va fors tillarida asarlar bitgan. „Zarbulmasal“ asari Umarxonning torshirig'i bilan yozilgan. U haqda Fazliyning „Majmuai shoiron“, Vozehning „Tuhfatul-ahbob“, Avazmuhammad Attorning „Tarixi jahonnoma“ asarlarida ma'lumot bor.

\*.Muhammad Rizo Ogahiy.Ulug‘ o‘zbek shoiri, tarixnavis, tarjima maktabining asoschisi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida Erniyozbek mirob oilasida (1809) tug‘ildi.

\*.Kamil Xorazmiy. 1825 yilda Xivada tavallud topgan. U Muhammad Rahimxon soniy (Feruz) zamonasida mirzaboshi, devonbegi lavozimlarida ishlagan.

\*.Yusuf Sayromiy Sayromiy. XIX asrning ikkinchi yarmi va XXasr boshlari o‘zbek adabiyotining vakili. Shoir muhr yasash va xattotlik qilish bilan hayot kechirgan.

\*.Feruz(Muhammad Rahimxon II.)Feruz shoh va shoir. Xiva xoni. Adabiyot va san‘at rahnamosi, musiqashunos, mohir sozanda va bastakor, san‘atkor ham talabchan muxlis bo‘lgan.

\*.Muqimiy.Muqimiy milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri.

\*.Zavqiy.Zavqiy lirik shoir. Shoir ijodida muhabbat lirikasi asosiy o‘rin egallaydi. Zavqiyning „Kelmasa kelmasun netay?“ radifli g‘azali o‘zbek mumtoz adabiyotining go‘zal an‘analarini davom ettirib yozilgan asar hisoblanadi.

\*.Furqat.Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat — milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri.

\*.Ahmad Tabibiy.Tabibiy Xorazm adabiy muhitiga mansub shoir. Tabibiy ijodida tazkiranavislik an‘analari o‘z rivojini topdi.

\*.Anbar otin.Anbar Otin XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yashab ijod etgan shoir.

Jadid adabiyoti davri (1905—1930 yillar).

\*.Mahmudxo‘ja Behbudiy.Behbudiy Turkistonda jadidchilik harakatining rahnamosi. Yoshligida tog‘asi Muhammad Siddiq huzurida ta‘lim olgan. Keyinchalik mirzalik vazifasida ishlab, so‘ngra muftiylik lavozimiga o‘tadi.

\*.Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li.Munavvarqori 1878 yili Toshkentda tug'ilgan. 1931 yil 23 mayida Moskvaning mashhur Butirkasida otilib, Vagankovo qabristoniga pinhona ko'mildi.

\*.Abdulla Avloniy.Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida tug'ildi. Madrasa ta'limini oldi.

\*.So'fizoda Muhammadsharif. Muhammadsharif So'fizoda 1880 yilda Chustda hunarmand oilasida tug'ildi.

\*.Abdurauf Fitrat.Fitrat O'rta Osiyo jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan, yangi o'zbek adabiyotining asoschilaridan, usuli jadid maktablarining nazariyotchisi va amaliyotchisi, dramaturg, nosir, shoir va olim.

\*.Hamza Hakimzoda Niyoziy.Hamza jadid adabiyoti namoyandasi, shoir, dramaturg, adib va muallim.

\*.Abdulla Qodiriy.Abdulla Qodiriy o'zbek milliy romanchiligining asoschisi, hajv ustasi, tilshunos va tarjimon.

\*.Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon.O'zbek yangi she'riyatining asoschilaridan biri, dramaturg, nosir va tarjimon.

Sovet davri adabiyoti (20 asrning 30-80 yillari).

\*.G'afur G'ulom.1903 yilning 10 mayida Toshkent shahrida tug'ilgan. „Shum bola“ (1936) avtobiografik qissasida ijodkorning bolaligi, asr boshidagi Toshkent hayoti tiniq tasvirlangan.

\*.Oybek — 1905 yilda 10 yanvarda Toshkentning Govkush mahallasida tug'ilgan Muso Toshmuhammadning adabiy taxallusi. „Bolalik xotiralarim“ (1963) asarida bolaligini: ota-onasi, qarindoshlari, XX asr boshidagi Toshkent va uning atrofidagi qishloq, ilk sabog'i, saboqdoshlarini tasvirlaydi.

\*.Abdulla Qahhor. Talantli o'zbek yozuvchisi. 1907 yil 17 sentyabrda Qo'qonda tug'ildi.

- \*.Mirkarim Osim.Toshkentda ziyoli oilasida tug‘ildi. „Shamsul irfon“ maktabida, Narimonov nomli texnikumda (1924) o‘qidi.
- \*.Maqsud Shayxzoda.Taniqli shoir va dramaturg. U aslida ozarbayjon millatiga mansub bo‘lib, 1908yilda Oqtosh shahrida vrach oilasida tug‘ilgan.
- \*.Hamid Olimjon.Iste’dodli shoir. Lirik she’rlari bilan XX asr o‘zbek adabiyotiga munosib hissa qo‘shgan. 1909 yilning 12 dekabrda Jizzaxda tug‘ilgan. Boshlang‘ich ta’limdan so‘ng 20-yillarning oxirida tahsilni Samarqanddagi pedakademiya davom ettirgan. „Ko‘klam“ nomli birinchi she’riy to‘plami 1928 yilda bosilib chiqqan. She’rlarida lirik pafos yetakchilik qiladi. 30-yillarda shodlik va baxt kuychisi sifatida tanildi.
- \*.Mirtemir.O‘zbek she’riyati taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan shoir Mirtemir Tursunov 1910 yilning 10 mayida Turkiston shahri yaqinidagi Iqon qishlog‘ida tug‘ildi.
- \*.Izzat Sulton.Adabiyotshunos, tanqidchi, dramaturg Izzat Otaxonovich Sultonov 1910 yilda O‘sh shahrida tug‘ildi.
- \*.Usmon Nosir XX asr o‘zbek she’riyatiga chaqmoqdek kirib kelgan va yashindek qisqa ijodiy umr kechirgan talantli shoir Usmon Nosir 1912 yilning 13 noyabrda Namanganda tug‘ildi.
- \*.Zulfiya.O‘zbek shoirasi. 1915 yilning 1 martida Toshkentda tug‘ilgan. O‘rta maktabdan so‘ng pedagogika institutida va aspiranturada ta’lim olgan.
- \*.Asqad Muxtor.Shoir va yozuvchi. 1920 yilning 23 dekabrda Farg‘ona shahrida tug‘ilgan. Bolalar uyida tarbiyalangan. 1936 yilda maktabni bitirgan. Toshkentda jurnalistika kursida o‘qigan.
- \*.Said Ahmad.Mashhur o‘zbek adibi Said Ahmad (Saidahmad Husanxo‘jaev) 1920 yilning 10 iyunida Toshkent shahrining „Samarqand darvoza“ mahallasida tug‘ilgan.

\*.Shukrullo(Shukrullo Yusupov) 1921 yil 2 sentyabrda Toshkentning Olmazor mahallasida ziyoli oilada tug'ildi. Otasi —Yusufxo'ja Mahmudxo'ja o'g'li emchi bo'lgan. Onasi — Zaynabxon ham ilmi ayol bo'lgan.

\*.Mirmuhsin.Mirmuhsin (Mirsaidov) 1921 yil 3 mayda Toshkentning Kesakqo'rg'on mahallasida kulol oilasida tug'ildi.

\*.Odil Yoqubov.Odil Yoqubov 1926 yili Qozog'istonning Turkiston viloyatida ziyoli oilasida tug'ilgan.

\*.Pirimqul Qodirov.Pirimqul Qodirov 1928 yil 25 oktyabrda Turkiston tizma tog'i etagidagi Kengqo'l qishlog'ida tug'ildi.

\*.Ibrohim G'ofurov.Yozuvchi tarjimon, tanqidchi Ibrohim G'ofurov 1937 yil 27 dekabrda Toshkentda hunarmand oilasida tug'ildi

\*.Rauf Parfi (1943-2005).Rauf Parfi (taxallusi — O'zturk) 1943 yil 27 sentyabrda Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumaniga qarashli Sho'ralisoy qishlog'ida tug'ilgan. Rauf Parfi Bayronning „Manfred“, Nozim Hikmatning „Inson manzaralari“, Mahmud Hodiyning „Ozodlik lavhalari“ („Alvohi intiboh“), Karlo Kaladzening „Dengiz xayoli“, A. Dyumaning „Uch sarboz“ va boshqa asarlarni o'zbek tiliga o'girgan.Asarlari: „Karvon yo'li“ (1969, birinchi she'riy kitobi), „Aks — sado“ (1970), „Tasvir“ (1973), „Xotirota“ (1974), „Ko'zlar“ (1976), „Qaytish“ (1981), „Sabr daraxti“ (1986), „Sukunat“ (1989), „Tavba“ (2000) kabi to'plamlari, „Sukunat“ (1991), „Adashgan ruh“ dostoni, „Hijrat“, „Men yolg'izman“, „Pag'a-pag'a oppoq qor yog'ar“, „Ona Turkiston“ (1992), „Turkiston ruhi“ (1993), „Saylanma“ (1993), „Tong otmoqda“, „Shoir“, „Xato qildim“, „Cho'lpon“, „Yomg'ir yog'ar“ (bunda yomg'ir ilhomning ramzi) kabi she'rlari, „Abdullajon“ marsiyasi va boshq.

\*.Ahmad A'zam — yozuvchi, munaqqid, ssenarist, telejurnalist. 1949 yili Samarqand viloyati, Jomboy tumanidagi G'azira qishlog'ida tug'ilgan.

\*.Xurshid Davron.Xurshid Davron(1952-yil 20-yanvarda Samarqandda tugʻilgan)— oʻzbek shoiri, jurnalisti, tarixchisi, tasavvufshunosi, yozuvchisi va tarjimoni.Xurshid Davronning butun ijodi ona Turkiston va Samarqand tarixi bilan yoʻgʻrilgan. Uning „Samarqand xayoli“, „Sohibqiron nabirasi“, „Shahidlar shohi yohud Shayx Kubro tushlari“ asarlari Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Mirzo Bobur hayoti va faoliyaning ayrim bosqichlariga, Turkiston tasavvuf maktablari tarixiga bagʻishlangan.Xurshid Davron dramaturgiya sohasida ham ijod qiladi. „Bobur sogʻinchi“, „Algʻul yulduzi“ (Mirzo Ulugʻbek) pyesalarining muallifi.

\*.Omon Muxtor.Omon Muxtor (Omonov Muxtor Sulaymonovich) 1941 yil 16 iyulda Buxoro shahrida tugʻilgan.

\*.Usmon Azim.Shoir, dramaturg, kinodramaturg va nosir. 1950 yil Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tugʻilgan. 1972 yil Toshkent Davlat Universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan.

\*.Halima Xudoyberdiyeva.Shoir Halima Xudoyberdiyeva 1947 yil 17 mayda Boyovutdagi „Taraqqiyot“ jamoa xoʻjaligida tugʻilgan. Toshkent Davlat universiteti (hozirgi OʻzMU)ning jurnalistika fakultetini tugatgan (1972). Mehnat faoliyatini „Saodat“ jurnalida boʻlim boshligʻiligidan boshlagan (1972). Talabalik yillarida „Ilk muhabbat“ (1968) sheʼriy toʻplami chop etildi. Shoiraning „Oq olmalar“ (1973), „Chaman“ (1974) toʻplamlari izma-iz bosildi.

\*.Shukur Holmirzaev.Isteʼdodli oʻzbek yozuvchisi. 1940 yilning 24 martida Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Shahidlar qishlogʻida tugʻilgan. 1957—1962 yillarda ToshDU (hozirgi OʻzMU)ning filologiya fakultetiga oʻqigan. Soʻng Toshkentdagi bir qator nashriyot va gazeta-jurnallarning tahririyatlarida ishladi.

\*.Abdulla Oripov atoqli oʻzbek shoiri va jamoat arbobi. U hozirgi oʻzbek sheʼriyatida inson qalbidagi murakkablik va ziddiyatlarni teran, haqqoniy oʻziga xos betakror kuylagan ulkan ijodkordir. Abdula Oripov hozirgi oʻzbek sheʼriyatiga

yangicha badiiy tafakkur yo'sinlarini olib kirdi. U tub mohiyati bilan Yassaviy, Navoiy, Bobur, Cho'lpon, G'. G'ulom singari ijodkorlar badiiy an'alarining davomchisidir. Shoirning butkul ijodi milliylik ruhi bilan sug'orilgan.

\*.O'tkir Hoshimov.Taniqli o'zbek yozuvchisi va jamoat arbobi. 1941 yili 4 avgustda Toshkentda Do'mbirobod mahallasida tug'ilgan. Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetida o'qigan. Turli tahririyat va nashriyotlarda ishlagan.

\*.Oydin Hojiyeva1942 yil 22 aprelda Buxoroning Qiziltepa tumanidagi Hojayi Bo'ston qishlog'ida tug'ildi. 1965 yilda ToshDU (hozirgi O'zMU)ning filologiya fakultetini bitirdi.

\*.Muhammad Ali.Muhammad Ali (Muhammad Ali Ahmedov)1942 yil 13 martda Andijonning Bo'z tumanida tug'ilgan. U shoir, yozuvchi, olim va jamoat arbobi. Bekobodagi o'rta maktabni (1959), Moskvadagi Gorkiy nomidagi adabiyot institutini (1996) tamomlagan.

\*.Tohir Malik.Tohir Malik Abdumalik o'g'li Habilovning adabiy taxallusi, Toshkentda tug'ilgan, Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti)ning jurnalistika fakulteti kechki bo'limida o'qidi, kunduzi qurilishda ishladi. 1966 yildan beri O'zbekiston radiosida, gazeta va jurnallar tahririyatida, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida, nashriyotlarda ishladi. Hozir „Sharq“ NMAK bosh tahririyatida muharrir.

\*.Anvar Obidjon.Anvar Obidjon 1947 yil 8-yanvarda Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi Polog'on qishlog'ida dunyoga kelgan. O'rta maktabda o'qib yurganida „G'uncha“ jurnalida „Shkafjon“ nomli birinchi she'ri bosilgan (1960).

Tog'ay Murod.Tog'ay Murod — Tog'aymurod Mengnorovning taxallusi. U 1948 yili Surxondaryoning Denov tumanidagi Xo'jasoat qishlog'ida tug'ilgan.

\*.Azim Suyun.Azim Suyun (Azimboy Alimovich Suyunov) 1948 yil Samarqand viloyatiga qarashli Nakurt qishlog'ida tug'ilgan.



\*.Erkin A'zam 1950 yil 10 avgustda tog'li Boysunda tug'ildi 1972 yil Toshkent Davlat Universiteti (Xozir O'zbekiston Milliy Universiteti)ning jurnalistika fakultetini tamomladi.

\*.Sharof Boshbekov.Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi G'ubir qishlog'ida 1951 yil 4 yanvarda tug'ildi.

\*.Xurshid Do'stmuhammad.Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad (Xurshid Do'stmuhammedov) 1951yilda Toshkent shahrida tug'lgan.

\*.Muhammad Yusuf.1954 yil 26 aprelda Andijonning Marhamat tumanida tug'ildi. Toshkentdagi rus tili va adabiyoti institutini tamomladi (1978). Respublika kitobsevarlar jamiyatida (1978—1980), „Toshkent oqshomi“ gazetasida (1980—1986), Adabiyot va san'at nashriyatida, „O'zbekiston ovozi“ gazetasida (1986—1993) ishladi.

\*.Hayriddin Sultonov.Toshkent viloyati Qibray tumanidagi Tuzel qishlog'ida 1956 yil 18 yanvarda tug'ilgan. 1973 yilda Parkentdagi maktabni tugatgach, ToshDU (hozirgi O'zMU)ning jurnalistika fakultetiga o'qishga kirdi (1972).

## **1.2.Kores adabiyotining shakllanish tarixi.**

Adabiyoti milodning avvalida qad. k. folkloridan rivojlana boshlagan. XIX asr oxirigacha badiiy asarlar koreys tilida va xanmun — xitoy adabiy tilining koreyslashtirilgan shaklida yaratilgan. Xitoy iyeroglifi, keyinroq koreys alifbosida yozilgan "Ona-vatan qo'shiqlari" (VII-XI asrlar) k.adabiyotining qadimgi namunasi.

XI-XIV asrlarda uning davomi — "Koreya qo'shiqlari" yaratildi. She'riyatning vujudga kelishida Chxve Chxi Von (857) muhim rol o'ynadi. Li In No uni yanada rivojlantirdi. Badiiy nasr asta-sekin tarixiy adabiyotdan ajralib chiqdi. Novella janriga Kim Si Sip (1435— 93) asos soldi. 1487 yil So Go Jon (1420—88) 130 kitobdan iborat "Sharq antologiyasi"ni tuzdi. Lim Je (1549— 87) satirik qissalar yozdi.

XVI- XVII asrlarda tabiat go'zalliklarini madh etuvchi va falsafiy she'riyat ravnaq, topdi. XVII-XIX asrlarda koreys tilida ko'plab qissalar yozildi, dastlabki romanlar paydo bo'la boshladi, yangi nasr shakllandi. Dastlabki erkin she'rlarni Chxve Nam Son va Kim Ok yozdi.

Yaponiya xukmronligi davrida adabiyotning taraqqiyoti vaqtincha to'xtab qoldi, ko'pgina yozuvchilar qatag'onga uchradi. 1919 yil qo'zg'oloni bostirilgandan keyin har xil dekadentlik yo'nalishlari ko'paydi. Realistik romanlar paydo bo'ldi (1934). Yapon reaksiyasi kuchaygan davrda tarixiy roman janri ommalashdi (30-yillarning 2-yarmi). Yaponiyaga qarshi xalq lashkarlari uchun jangovar inqilobiy she'rlar, qo'shiqlar va kichik pyesalar yaratildi (1930-40).

Koreyaning bugungi kundagi mashhur yozuvchilari:

Cho Xi Su (1962; Janubiy Koreya) Choi Xi Su 1962 yili Janubiy Koreyaning Paju shahrida tug'ilgan. U Seul Universitetining badiiy peyzaj fakultetini tamomlagan bo'lib, shu vaqtga qadar 9 ta kitobi nashr etilgan. Cho Xi Su Koreyada anchagina nufuzga ega bo'lgan "Joun chek ilkki" ("Yaxshi kitoblar mutolaasi") nomli ilmiy-adabiy jurnalining "Oila" bo'limi mudiri lavozimida faoliyat ko'rsatgan va aynan shu jurnal orqali uning bir qancha asarlari koreyalik kitobxonlarga yetib borgan.

Uning “Dadam bilan kitob”, “Chuqur muhabbat baxtni yaratadi” nomli kitoblari mashhur.

Chon Myong Kvan (1964; Janubiy Koreya). Yozuvchi Chon Myong Kvan koreys nasrining kenja avlod namoyondalaridan biri hisoblanadi. U 1964 yili Koreyaning Kyongido viloyati Yong-in shahrida tugʻilgan. U dastlab kinossenariychi sifatida faoliyat yuritgan boʻlsa, 2003 yili “Frenk” nomli hikoyasi bilan adabiyotga kirib keldi. Shu yili Koreyadagi nufuzli “Munhak dongne” nashriyatining “Eng yaxshi nasriy debyut” yoʻnalishi sohibi boʻldi. 2004 yili esa ushbu mukofotning “Adabiyot yuzi” yoʻnalishida gʻolib boʻldi. 2004 yili koreys kitobxonlarining sevimli romaniga aylangan “Dengiz kiti” asari nashr qilingan boʻlsa, 2010 yili Chon Myong Kvan ssenariysi asosida “Qoʻshni uydagi erkak” filmi ekranga chiqdi. 2010 yili ham Chon Myong Kvan ijodida barakali boʻldi: uning “Qarigan oila” qissasi ham qoʻlma-qoʻl boʻldi. 2012 yil mart oyida esa uning “Bryus Li – mening togʻam” nomli qissasi eʼlon qilindi.

Chong Yong Cheol (1962; Janubiy Koreya) Chong Yong Cheol hozirgi koreys adabiyotining proza janri yetakchi namoyondalaridan biridir. U 1962 yilda tugʻilgan. Bir qancha hikoyalar va prozaik asarlardan iborat kitoblari nashrdan chiqqan. Soʻnggi paytlarda uning “Yaroqsiz buyum” (“Bullyangpum”) nomli kitobi qoʻlma qoʻl boʻlmoqda. Kitob hayotiy mulohazalar, ibratli hikoya va luqmalardan tuzilgan boʻlib, zamonaviy Koreya hayotini aks ettiradi. Chong Yong Cheol hozirda “Ezgu xayol” adabiy jurnalida faoliyat yuritmoqda.

Li Mi Ye (1964; Janubiy Koreya). Li Mi Ye koreys bolalar adabiyotining yirik namoyondalaridan biridir. U 1964 yil 7 dekabrda Janubiy Koreyaning Tegu shahrida tugʻilgan. Uning 179 ga yaqin kitoblari nashr etilgan boʻlib, koʻproq bolalar hayotiga oid ertak va hikoyalardan tashkil topgan. Uning “Nima nimaga oʻxshaydi?”, “Kuzga yetdik”, “Sahro qirolligi”, “Maqsad sari bir qadam”, “Biz seni sevamiz”, “Buvimning sovgʻasi” kabi kitoblari koreys bolalari orasida qoʻlma-qoʻl boʻlgan. Li Mi Ye Koreyaning Chung-Ang universiteti adabiyotshunoslik fakultetini tamomlagan boʻlib, 1994 yili “Eng eʼtiborga loyiq

asar uchun” va “Yangi do‘st” adabiyot sovrinlarini qo‘lga kiritgan bo‘lib, 2000 yili eng yaxshi hikoya uchun “Samsung” mukofotiga loyiq ko‘rilgan.

1948 yil — Li Mun Yol tavallud topgan. 1970 yil — Li Mun Yol Seul milliy universitetini tugallagan.

1977 yil — uning birinchi asari — “Chegarada” hikoyasi “Degu” gazetasida chop etildi.

1979 yil — yozuvchining “Inson farzandi” asari e‘lon qilingan.

1982 yil — Li Mun Yolning “Oltin qanotli qush” qissasi milliy Kim Tonin nomidagi adabiy mukofot bilan taqdirlangan.

1983 yil — yozuvchi “Imperator haqi” romani uchun Koreya Respublikasi adabiy mukofotiga munosib topilgan.

1984 yil — adibning “Qahramon davri” asari chop etilgan.

1985 yil — Li Mun Yol Inchxonda yosh mualliflar uchun ijodiy studiya tashkil etgan.

1987 yil — yozuvchining “Bizning sindirilgan qahramon” asari nashr etilgan.

1988 yil — Inchxondagi ijodiy studiya negizida Li Mun Yol tomonidan Janubiy Koreyada birinchi “Pu-ak” adabiyot akademiyasi ochilgan.

1989 yil — Li Mun Yolning “Xatto yiqilganlarning ham qanoti bor” asari chop etilgan.

1994-1997 yillar — Li Mun Yol Sechjon universitetida koreys tili va adabiyotidan dars bergan.

1999 yil — u “Pu-ak” adabiyot akademiyasi rahbari vazifasiga tayinlangan.

1999 yil — Li Mun Yol mamlakatda eng nufuzli “Xoam” mukofotiga sazovor bo‘lgan.

## **II BOB.O‘zbek va koreys adabiyotida g‘oya va fikrlarning o‘xshash jihatlari(“Alpomish” dostoni, “Jumong” dostoni, xalq maqollari va Li Mun Yol,O‘tkir Hoshimov va boshqa ijodkorlar misolida).**

### **2.1. “Alpomish” va “Jumong” dostonlarining tarbiyaviy ahamiyati.**

Janubiy koreyalik olim O In Kyong «Alpomish» va «Jumong» dostonlari materiallari asosida o‘zbek va koreys qahramonlik eposlari qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

— Men 2010 yildan buyon O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida ilmiy tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritish bilan birga Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida dars berdim, — deydi O In Kyong. — «Alpomish» dostonining g‘oyasi, tili va uslubi meni nihoyatda hayratga soldi. «Jumong» ham koreys xalqining qahramonlik eposi hisoblanadi. O‘zbek xalqiga bu doston «Jumong» teleseriali orqali yaxshi tanish. Bu ikki dostonning syujetini tashkil etuvchi asosiy voqealarning ildizi Markaziy Osiyoda yashagan qadimgi turkiylarning an‘analariga borib taqalishi fanda olimlar tomonidan isbotlangan.Shuningdek, «Alpomish» va «Jumong» dostonlarining qiyosiy tadqiq etilishi ikki xalq ruhiyatidagi mushtarak jihatlarni ochib berishi bilan ham qimmatlidir<sup>3</sup>.

«Jumong» dostoni Hemosu, Jumong, Yuri kabi uch avlod sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. «Alpomish»da ham uch avlod, ya’ni Boybo‘ri bilan Boysari, Alpomish va uning o‘g‘li Yodgor taqdiri bayon etilgan.Ahamiyatlisi, ikki dostonning tuzilishi ham epik asar qurilishiga to‘la mos keladi. Ayrim o‘xshash xususiyatlar haqida fikr yuritsak. Masalan, har ikki qahramon ham aslzoda nasl-nasabga mansubdir. Alpomishning otasi Boybo‘ri Boysun-Qo‘ng‘irot elining sarbonidir. Jumong esa bir tomondan ko‘k, ya’ni ruhlar dunyosiga bog‘lanadi. G‘ayritabiiy tug‘ilish talqinini olsak, Jumongning onasi Yuhva osmondan tushgan ilohiy nurdan homilador bo‘ladi va bir dona katta tuxum qo‘yadi. Qirol tuxumni

---

<sup>3</sup> “O‘zbekiston ovozi “ gazetasi .Toshkent – 2016 .

tashlab yuboradi. Ammo jonivorlar uni asrab qolishadi. Voqealar rivojida qirol tuxumni yana Yuhvaga qaytarib beradi va shu tariqa Jumong dunyoga keladi.

«Alpomish» dostonida esa bundanda ta'sirchan lavhalar bor. Boybo'ri va Boysari to'yga borishganida ularni farzandi yo'q deb behurmat qilishadi. Bundan ranjigan aka-ukalar Shohimardon pir mozoriga borib, qirq kun tunaydilar. Qirq birinchi kuni shunday ilohiy xabar eshitadilar:

«Boybo'ri, senga xudoyim bir o'g'il, bir qiz berdi, yolg'iz emas egiz berdi; Boysari, senga xudoyim bir qiz berdi, egiz emas yolg'iz berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko'rsang, xaloyiqni yig'sang, to'y-tomoshalar bersang, to'yda qalandar bo'lib borib, bolalaringning otini o'zim qo'yib kelaman»<sup>4</sup>.

Alpomish va Jumong juda ko'p noyob qobiliyatlarga ega. Masalan, ikki qahramon ham kamondan bexato o'q uza olishi bilan mashhur. Alpomish o'zining mardligi va jasorati tufayli Barchinni qutqarib, el-yurti, yori va xalqining oriyatini, manfaatini himoya qiladi. Jumong ham barcha qiyinchiliklarni yengib, o'zi orzu qilgan saltanatni bunyod etadi. Jumong obrazida ham ko'pgina ijobiy xususiyatlar mavjud. Ularning aksari ilohiylik vositasida aks ettirilgan. Alpomishning fazilatlari esa tabiiy va ishonarli. Shuning uchun bugungacha uning sifatlari o'zbek o'g'lonlariga ibrat bo'lib keladi. Birgina misol: Alpomish Qalmoq eli zindonida edi. Do'sti Qorajon daragini topib keladi va chohga arqon tashlaydi. Chirmoviqqa osilib chiqayotgan alp negadir yarim yo'lda arqonni kesib, zindonga qaytadi. Alpning ori keladi, ertaga yuzimga solmasin deydi. Mana sizga haqiqiy yigitning or-nomusi.

Qadimgi turkiylar an'anasiga ko'ra, kishining jamiyatda tutgan mavqeyi va ko'rsatgan jasoratlariga qarab ism ham o'zgartirilgan. Har ikki dostonida ham qahramonlarga ism qo'yish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Ular qaysidir jasorati tufayli ikkinchi bir ulug' nomga sazovor bo'ladi.

---

<sup>4</sup> Фозил Йўлдош ўғли. Алпомиш. Ўзбек халқ достони. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.15

Alpomishga ilk bor qalandar-darvesh qiyofasidagi pir tomonidan Hakimbek deb ism berilishi va keyinchalik uning alp bo'lib yetishishi bashorat qilinadi. U 7 yoshida Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmonlik yoydan otib, hammani hayratga soladi. Shundan so'ng to'qson alpning biri sifatida tan olinib, Alpomish nomini oladi. «Jumong» ham merganlikda tengsiz ekanligini isbotlay olgan qahramon. Aslida uning ismi «kamonni yaxshi otuvchi odam» ma'nosini anglatadi.

«Alpomish» dostonida o'z ifodasini topgan ezgu g'oyalar o'zbek xalqining ma'naviy taraqqiyotida nechog'liq muhim o'rin tutgan bo'lsa, koreys qahramonlik eposi «Jumo'ng» ham Koreya xalqi taraqqiyotining negizini tashkil etuvchi ma'naviy tayanchlardan biri bo'lib kelgan. Bu esa har ikki xalq ma'naviy qadriyatlari tizimining g'oyat yaqinligi va hayotbaxshligini ko'rsatadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov qisqa muddatda jahonning eng ilg'or mamlakatlari qatoridan o'rin olgan Janubiy Koreya taraqqiyotini ta'minlagan omillar xususida to'xtalganida, «...koreys xalqi asrlar davomida shakllanib, katta bunyodkor kuchga aylangan o'ziga xos milliy ma'naviyati hisobidan ham rivojlanganligi»ni ta'kidlab, koreys xalqi ma'naviyatiga yuksak baho bergan edi . Shuning uchun jahon badiiy qadriyatlarining durdonasi hisoblangan o'zbek xalq qahramonlik eposi «Alpomish» dostoni bilan koreyaliklar badiiy tafakkurining ulkan yodgorligi «Jumo'ng»ni qiyoslab o'rganish asosida ikki xalq epik tafakkurining o'ziga xosligini ko'rsatish mumkindir.

O'zbek va koreys folkloridagi qahramonlik eposlari har bir mamlakatda chuqur va keng ko'lamda o'rganilgan bo'lib, «Alpomish» dostoni G'.O.Yunusov, V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifov, M.Afzalov, M.Saidov, T.G'oziboev, M.Murodov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, K.Imomov, O.Madaev, M.Jo'raev, S.Yo'ldosheva, A.Ergashev, I.Yormatov, SH.Turdimov, J.Eshonqulov<sup>5</sup> va boshqa olimlar tomonidan turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan .

---

<sup>5</sup> Юнусов Г.О. «Алпомиш» дostonи // Билим ўчоғи. – Тошкент, 1923. – 2–3-сонлар. – Б.37–39; Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: ГИХЛ, 1947. – С.165–279; Зарифов Х.Т. Основные мотивы эпоса Алпомыш // Об эпосе «Алпамыш». – Тошкент: Фан, 1959. – С.6–25; Ғозибоев Т. «Алпомиш» дostonининг

I Byongdo' esa «Jumo'ng» eposi syujetining tarixiy asoslarini Bueyo davlati tarixi bilan chambarchas bog'liq holda o'rgangan<sup>6</sup>. Gim Dujin o'z tadqiqotlarida kosmogonik miflar rivoji natijasida Go'guryoda «Jumo'ng» dostonining ilk syujeti yuzaga kelaboshlaganini aniqlagan<sup>7</sup>. «Jumo'ng» dostonini o'rganishga oid dastlabki tadqiqot muallifi yapon olimi Nakamichiuo Buyo davlatining paydo bo'lishiga oid mifologik tasavvurlarning Go'guryo miflariga bog'liqligini aniqlagan<sup>8</sup>. Jumo'ng haqidagi ilk mifologik syujet dastavval Bueyo davrida yuzaga kelib, keyinchalik Go'guryo aholisining arxaik eposi tarzida shakllangan. Go'guryo mifologiyasining asosini esa Buyo asotirlari tashkil etgan. Koreys olimi I Byongdo' esa «Jumo'ng» eposi syujetining genezisi Buyo davlati davriga borib taqalishini isbotladi. Gim Dujinning fikricha, osmon tangrisi haqidagi kosmogonik miflar rivoji natijasida Go'guryoda «Jumo'ng» dostonining ilk syujeti paydo bo'lgan. Keyinchalik shimoldan kelgan qabilalar bilan yerli aholi mifologiyasining birlashishi oqibatida yuzaga kelgan arxaik eposning qahramonlik dostoni xarakteriga ega bo'lganligi aniqlandi<sup>9</sup>. Yaponiyalik olim Mishna Akixida quyosh nuridan tug'ilish bilan bog'liq mifik tasavvurlar hamda Jumo'ngning g'ayrioddiy tarzda tuxumdan tug'ilishi motivi shimoliy va janubiy hudud aholisi

---

Наманган вариантлари // Ўзбек тилшунослиги ва ўзбек адабиёти масалалари. – Тошкент, 1967. – Б.3–12; Саидов М. Ўзбек дostonчилигида бадий маҳорат. – Тошкент: Фан, 1969. – Б.70–144; Афзалов М. «Алпомиш» дostonининг вариантлари ҳақида // Шарқ юлдузи. – 1956. – 7-сон. – Б.107–117; Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonининг ўзбек вариантлари. Тошкент: Фан, 1968; Муродов М., Эргашев А. Алпомишнома. – Ташкент: Ўзбекистон, 1999 – Б.288; Имомов К. «Алпомиш» эпосининг айрим хусусиятларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1999. – 1-сон. – Б.12–16; Мадаев О. «Алпомиш» билан суҳбат. – Тошкент, 1999; Жўраев М. «Алпомиш» дostonида мифологик образлар // «Алпомиш» – ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. – Тошкент: Фан, 1999. – Б.147–157; Йўлдошева С. Поэтика узбекского героического эпоса «Алпамыш»: Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1984; Ёрматов И. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси бадиияти. – Тошкент: Фан, 1994; Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012 – Б.97; Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Тошкент: Фан, 2011.

<sup>6</sup> 이병두. 한국사. – 서울: 을유문화사. – 1995. – P.40.

<sup>7</sup> 김두진. 한국고대의 건국신화와 제의. – 서울: 일조각. – 1999. – P.10–78.

<sup>8</sup> 김두진. 한국고대의 건국신화와 제의. – 서울: 일조각. – 1999. – P.10–78.

<sup>9</sup> 나경수. 한국의 건국신화연구 // 교문사. – 서울. – 1983. – P.93–99.



mifologiyasining o'zaro aloqadorligini ko'rsatuvchi muhim dalil ekanligini aniqladi<sup>10</sup>.

Gim Yolgyu «Jumo'ng» eposining «tuxumdan tug'ilish >tashlab yuborilish > mamlakatdan ajralish > vazifani bajarish» kabi elementlardan iborat strukturasi Sibir turkiylari folkloridagi shomon initsiatsiyasi tasvirlangan afsonalarga aloqadorligini isbotladi. Ma'lumki, «Jumo'ng» dostoni uch epik qahramon: Hemosu – Jumo'ng – Yuri triadasidan iborat uch avlod sarguzashtlari haqida hikoya qiluvchi asardir. «Alpomish» dostonida ham uch avlod, ya'ni Boybo'ri bilan Boysari, Alpomish va uning o'g'li Yodgor taqdiri bayon etilgan. Har ikki dostonning syujet tuzilishi L.Raglan, O.Rank va J.Kambel kabi olimlarning epik asar syujet qurilishi mezonlari va struktural-kompozitsion funksiyalariga doir qarashlariga mos keladi.Ularning fikricha, epos syujet qurilishi quyidagicha qismlarga bo'linadi: 1) aslzoda nasl-nasabga mansublik va g'ayritabiiy tug'ilish;

2) tangrining karomati;

3) tashlab yuborilish;

4) oliy tabaqaga mansub insonlar tomonidan qutqarilish;

5) tahlika va uni yengish;

6) muammoni hal etish;

7) fojyaviy yakunlanma .

«Jumo'ng» va «Alpomish» dostonlarida yuqorida keltirilgan syujet strukturasi asosan besh qismi mavjud: 1) aslzoda nasl-nasabga mansublik; 2) g'ayritabiiy tug'ilish; 3) tahlika va uni yengish; 4) ajoyib qobilyat; 5) muammoni hal qilish<sup>11</sup>.

---

<sup>10</sup> Кўрсатилган асар. – Б.118.

<sup>11</sup> Raglan L. The Hero: A Study in tradition // Myth and Drama. – New American Literary, 1956. – P.174–175; Rank O. The Myth of the Birth of the Hero and Other Writings // Vantage

1. Aslzoda nasl-nasabga mansublik. Qadimgi koreys yozma yodgorligi «To'ngmyongvangpyon» talqinicha, beshta ajdaho qo'shilgan aravaga minib yerga tushgan va qirol bo'lib, hukmronlik qilgan ko'k tangrisi Hemosu yuqori olam timsolidir. Yuxva esa daryoning qizi bo'lgani uchun o'zida serhosillik kultining mohiyatini aks ettirgan ona iloha, yer ma'budasining antropomorf shakldagi talqini hisoblanadi. Demak, Jumo'ngning nasl-nasabi bir tomondan ko'k –yuqori olam – ruhlar dunyosiga bog'lansa, ikkinchidan, yer-suv ma'budlariga borib taqaladi.

«Alpomish» dostonining qahramoni bo'lgan Hakimbekning otasi Boybo'ri, baxshi tabiricha, «Boysun-qo'ng'iro' elining xoni»dir. Demak, aslzoda nasl-nasabga mansublik har ikki qahramonlik dostoniga xos mushtarak xususiyatdir.

2. G'ayritabiiy tug'ilish. Epik qahramonning g'ayritabiiy tug'ilishi motvida «qadimiy mifologik tasavvurlar aks etgan». Jumo'ngning onasi osmondan tushgan ilohiy nurdan homilador bo'lishi motivi epik qahramonning dunyoga kelishi va tug'ilishi quyosh kulti bilan bog'liq qadimgi tasavvurlarga aloqadorligini ko'rsatadi. Alpomishning Shohimardon mozorida tilab olingan farzand sifatida dunyoga kelishi o'zbek xalq qahramonlik eposida ham g'ayrioddiy tug'ilish motivi mavjudligini ko'rsatadi.

3. Tahlika va uni yengish. Jumo'ngning dastlab tuxum shaklida tug'ilishi va tuxumning yerga tashlanishi qahramonning ma'lum muddat «ramziy o'lim» holatida bo'lganligini bildiradi. Tuxumning ona (tabiat) vujudidan tushishi (mifologik qahramon ibtidosi) > tashlab yuborilishi > hayvonlar himoyasi > saroyga qaytarilishi (Jumo'ngning tug'ilishi) yil fasllarining doimiy o'zgarishi hamda yangi yilning boshlanishi haqidagi qadimgi kalendar miqlarni ifodalaydi.

«Alpomish» dostonida epik qahramonni Shohimardon piri va sadoqatli oti Boychibor himoya qiladi. Ot ham Alpomishni himoya qilish uchun yuborilgan ilohiy kuch timsolidir. Har ikki dostonida kosmik mohiyat kasb etuvchi jonivor timsolining mavjudligi epik an'analar genezisi bilan bog'liq bo'lib, tarixiy

---

Book –New York, 1959. – P.65; Campbell J. The Hero with a Thousand Faces // Bollingen Series, Princeton Univ. – Press, 1968. – P.35.

asoslariga ko'ra qadimgi Sibir mifologiyasiga mansub e'tiqodiy ishonchlar tizimining xalq eposi syujetiga diffuziyalashgan ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

4. Ajoyib qobiliyat. Koreys eposi qahramoniga kamonni juda yaxshi ishlata bilishi va merganligi uchun «Jumo'ng» deb ism qo'yilgan. Qadimgi koreys tilida «Jumo'ng» so'zi «kamonni yaxshi otuvchi odam» ma'nosini anglatadi.

«Alpomish» dostonida Hakimbek yetti yoshga to'lganida Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmonlik yoyni otadi. Kamondan otilgan o'q Asqar tog'ining cho'qqisini yalab o'tgach, Hakimbek «Alpomish» deb nomlanadi. Har ikki doston qahramonining tug'ilishidan boshlab g'ayritabiiy qobiliyatga ega bo'lishi va «alp» atalishi qahramonlik eposining muhim elementlaridan sanaladi. Epik qahramonning magik qobiliyatini ko'rsatadigan asosiy belgi esa yoy tortish motivida namoyon bo'ladi. Yoy detali epik qahramonga xos magik qudrat, ajdodlar kulturing homiyligi va ilohiylik timsoli sifatida talqin qilinadi.

5. Muammoni hal qilish. «Jumo'ng» dostoni koreys xalqining tarixi, millat sifatidagi shakllanish jarayoni va qahramonona o'tmishini keng epik ko'lamda aks ettirgan asardir. Alpomish ham o'zining jasorati va mardligi tufayli Barchinni qutqarib, el-yurti, yori va xalqining oriyatini, manfaatini himoya qiladi. Jumo'ng butun qiyinchiliklarni yengib o'tib, yangi davlat bunyod etsa, Alpomish qo'ng'iroq qabilasini birlashtirib, el-yurti parokandalikdan, tushkunlikdan asrab qoladi, yirik davlatga asos solib, uni boshqaradi. Bu esa har ikki xalq qahramonlik eposining mohiyati va personajlar tarkibi o'zaro mushtaraklik kasb etishidan dalolat beradi. Har ikkala dostonida qahramonlarga «ism qo'yish» motivi ham o'zining epik bayoniga ko'ra qadimgi tasavvurlarni ifodalaydi. «Alpomish» dostonida qahramonga qalandar-darvesh ko'rinishida namoyon bo'lgan homiy – Shohimardon pir tomonidan ism berilishi, birinchidan, uning g'ayrioddiy xususiyatlarga egaligi, ya'ni kelajakda «alp» bo'lishining ilk belgisi edi; ikkinchidan, epik qahramonning g'ayrioddiy kuchlar himoyasi va madadidan bahramand bo'lganligi, ya'ni «homiylar tomonidan tanlanganligi»dan dalolat beradi. Ma'lumki, «Jumo'ng» dostonida qahramonning kamondan “o'q otish motivi” uning “alp”ligini

ko'rsatadigan asosiy belgilaridan biri bo'lib, uning tabiatida ilohiylik mavjudligini, ya'ni Jumo'ng o'q-yoy timsoli sifatida tasavvur qilingan quyosh tangrisining o'g'li ekanligini ko'rsatadi. «Alpomish» dostonida esa epik qahramon yetti yoshga to'lganida o'zining alpligini, el-yurt birligi uchun tug'ilganligini bobosidan qolgan kamondan yoy otish orqali isbotlaydi. O'q-yoyning hokimiyat, davlat va baxt timsoli deb tasavvur qilinganligi «O'g'uznoma»da ham o'z ifodasini topgan<sup>12</sup>.

«Alpomish» va «Jumo'ng» dostonlarining asosiy motivlari tarkibida «alplik tizimi» mezonlariga bog'liq quyidagi xususiyatlar mavjud:

- epos qahramoni dunyoga kelmasdan avval ezgu homiylar va eranlar ruhining e'tiboriga tushadi, ya'ni homiylar tomonidan «tanlanganlik» maqomida turadi;
- qahramonlarning «alp atalishi» dushman tomon uchun qayg'u va kulfat timsoli sifatida talqin qilinadi;
- Alpomishning Barchin tufayli qalmoqlar yurtida ma'lum muddat yashashi, koreys xalq eposida Yuxva Gimvaning yurtida qolishga majbur bo'lgach, Jumo'ng ham ma'lum muddat «o'zga yurt»da qiyinchilik bilan kun kechirishi sinov marosimi ifodasi hisoblanadi;
- qahramonlar homiy kuchlar tomonidan tarbiyalanib, magik qudrat kasb etadi. Ularning taqdiri homiy kuchlar tomonidan avvaldan bashorat qilinadi;
- homiy kuchlar epik qahramonga doimo hamrohlik qiladilar, xususan, koreys xalq eposi qahramoni Jumo'ng qiyin ahvolga tushganida tangrilarga iltijo qiladi va uning tilaklari amalga oshadi;
- Alpomish o'z elatini birlashtirishi, Jumo'ng Go'guryo davlatini bunyod etib hokimiyatni tiklashi alplik tizimi mezonlariga to'la mos keladi;

---

<sup>12</sup> Щербак А.М. Огуз-наме. Мухаббат-наме. – М.;-Л., 1959. – С.57–63.

- Alpomishning o'z yori Barchinning to'yiga cho'pon Qultoy qiyofasida kelishi uning homiy ruhlar tomonidan tarbiyalab voyaga yetkazilgan yangi eran maqomidagi alp sifatida shakllanganligini bildiradi ;
- Jumo'ngning qirq yoshga kirgach osmonga chiqib ketishi qahramonning kamolotga yetib, Alpomish kabi g'ayb eranlar qatoriga o'tganligini ko'rsatadi;
- epik qahramonlarning shajarasiga alohida e'tibor qaratilishi xalqning davlatchilik dostonlarida ajdodlar kulti muhim o'rin tutganligining belgisidir.

«Alpomish» dostonida epik qahramonning zindonga tushishi o'zbeklarda ham «o'zga olam»ni yer ostida deb tasavvur qilishga asoslangan mifologik qarashlar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Alpomishning yetti yil zindonda yotishi, uning oldiga Tovka oyimning lahm qazib kelishi, xabarchi g'ozning Alpomish huzurida bo'lishi bilan bog'liq epik motivlar mifologik personajning «o'zga olam»ga safari to'g'risidagi arxaik miflar talqinidan iboratdir. Koreys eposi «Jumo'ng»da ham, o'zbek xalq dostoni «Alpomish»da ham qahramonning o'zi tug'ilib o'sgan yurtidan chiqib boshqa mamlakatga borishi muhim syujet halqasi sanaladi. Epik voqealar tizimi shu ko'chish sababini izohlash bilan boshlanadi va rivojlanadi. Qahramonning o'z tug'ilgan joyidan sayohatga chiqib, g'olib sifatida qaytib kelishi shomonning ruhlar makoni hisoblangan «o'zga olam»ga sayohatiga o'xshab ketadi.

## 2.2.Xalq maqollarida aks etgan tarbiyaviy tushunchalar.

Har bir xalqning o'ziga xos maqollarini tarjimada berishda o'ta ehtiyotkorlik talab etiladi. Chunki tarjimon o'sha xalq tilini yaxshi bilishi va anglay olishi darkor.

Koreys millatiga xos bo'lgan maqollarning o'rni beqiyos. Negaki, maqollarda shu xalqning o'ziga xos urf-odat va ma'daniyati aks etgan bo'ladi. Koreys tilining o'ziga xos jihati uning ibora va maqollarga nihoyatda boyligidir. Koreys tilidagi maqollarining lug'aviy ma'nosi uzoq o'tmishga borib taqaladi, bu ko'proq xalqning turmush tarzi va urf odatlariga ham qisman bog'liq.

O'zbek xalqi ham asrlar davomida yuksak ma'daniyat shakllanib kelgan millatlardan biri xisoblanadi. U o'ziga xos xalq og'zaki ijodiga ega. Bunda maqollarning o'rni beqiyos. Chunki maqollar millatning tajribasi, uning boshidan kechirgan voqealarining, o'y-fikrlarining isboti tarzda namoyon bo'ladi. Ushbu ilmiy ishimizda o'zbek va koreys maqollarini solishtirib chiqdik va o'zbekcha maqollarning koreys maqollariga o'xshash taraflarini aniqladik.

1. Do'st achitib gapiradi, dushman kuldirib (o'.m.) - Kim meni maqtasa - u mening dushmanim (k.m.).
2. Og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi (o'.m.) - Quyoshdan kuygan buqa oydan ham hayiqadi (k.m.).
3. Asal aynimaydi, sariyog' sasimas (o'.m.) - Uy tamalidan yemiriladi, inson boshidan ayniydi (k.m.).
4. Aytilgan so'z - otilgan o'q (o'.m.) - Otilgan o'qni qaytarish mumkin, aytilgan so'zni qaytarib bo'lmaydi (k.m.).
5. Uyat - o'limdan qattiq (o'.m.) - Uyatchanlik odamni o'ldiradi (k.m.).
6. **Yomg'irdan** qochib, do'lga tutilma (o'.m.) - Qochib ketgan quyonni tutaman deb, tutilganini qochirma (k.m.).

7. Bitta qozonda ikkita qo'chqorning boshi qaynamas(o'.m.) - Bir otga ikki egar o'rnatib bo'lmaydi(k.m.).
8. Bo'ri o'z hududini ovlamaydi(o'.m.) - Pichoq o'z sopini kesmaydi(k.m.).
9. Ko'r ko'rni qorong'uda topadi(o'.m.) - Bevaning dardini beva tushunadi. (k.m.).
10. O'z uying o'lan to'shaging (o'.m.) - Baliqqa o'z ko'lmagi aziz(k.m.).
11. Qars ikki qo'ldan chiqadi (o'.m.) - Bir qo'l bilan chapak chalib bo'lmaydi(k.m.).
12. Afting xunuk bo'lsa oynadan o'pkalama(o'.m.) - Qiyshiq daraxtning soyasi ham qiyshiq(k.m.).
13. Kambag'alni tuyani ustida ham it qopadi(o'.m.) - Omadsizning tubusiga ham suyak tusharmish (tubu — soyali tvorog) (k.m.).
14. Odamlar bor tirigida o'likdir, odamlar bor o'ligida tirikdir(o'.m.) - Tirik kuchuk o'lik vazirdan afzal(k.m.).
15. Pul – belning kuchi(o'.m.) - Pul bilan hatto it ham “janob Vov-vov”ga aylanadi(k.m.).
16. Cho'pon ko'p bo'lsa, qo'y xarom o'ladi (o'.m.) - Usta ko'p joyda devorlar qiyshiq bo'ladi(k.m.).
17. Qishni g'amini yozda ye(o'.m.) - Yozda bir kun yallo qilsang, qishda o'n kun och qolasan(k.m.).
18. Qulday ishlasang, biyday yeysan (o'.m.) - Ho'kizday ishla, lekin sichqonday ye(k.m.).
19. Eri-xotin urishi – doka ro'mol qurishi(o'.m.) - Xotin bilan janjallashish — pichoq bilan suv kesish(k.m.).
20. Oyning o'n beshi yorug' – o'n beshi qorong'u(o'.m.) - Baxt egiz yurmaydi, dard bir o'zi kelmaydi(k.m.).

Yuqoridagi maqollardan ko‘rinib turibdiki o‘zbek va koreys maqollari o‘zaro o‘xshash. Bunga sabab esa har ikki davlat tarixi va madaniyati o‘zaro mushtarakligidadir. Keltirib o‘tilgan maqollar mamlakatlar fuqarolarining ongi va tafakkurini o‘zida jamlagan. Bu hikmatlardan ta’lim jarayonida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar hikmatlarni solishtirib, zaruriy xulosalar chiqarishi va hayoti davomida foydalanishi mumkin.



### 2.3. Har ikki davlat zamonaviy adabiyotining ta'lim tizimida tutgan o'rni.

Xolbuki, koreys yozma asarlarining ilk namunasi VIII asrda Silla qirolligida yaratilgan<sup>13</sup>. 751 yilda Koreyada dastlabki kitob — “Dxarani sutraning pok yog’dusi” budda o’rami chop etilgan. Koreyaliklar matbaachilikda metall shriftidan ham Iogann Gutenberg<sup>14</sup> Bibliyani 1455 yilda shu usulda nashr etganidan 21 yil ilgari 1234 yilda qo’llay boshlaganlar. Koreys badiiy nasrining tarixi xam XV asrga borib taqaladi. O’sha davrda Kim Si Sipning (1435—1493) “Oltin Toshbaqa tog’ida quloqqa chalingan yangi hikoyalar”i nashr etilgan. Ushbu besh jilddan iborat badiiy asarlar turkumining birinchi jildi saqlanib dolgan. U xitoy tilida bitilgan bo’lsa ham, aslida bu asarda Koreyada so-dir bo’lgan vokealar xaqida so’z borgan. Xo Gyun qalamiga mansub, ijtimoiy tengsizlik muammolari ko’tarilgan birinchi koreys romani — “Xon Gil Don haqida qissa” esa XVII asrga taalluqlidir. Xangil<sup>15</sup> yozuvidagi “in munxak”(“yangi adabiyot”) nomini olgan badiiy adabiyot Koreyaning Yaponiya tomonidan bosib olinishidan avvalgi davrda — XX asr dastlabki o’n yilligida ravnaya topa boshladi. In munxak milliy o’zlikni anglash, ajnabiy bosqinchilarga isyon shaklini olgan. Jumladan, 1914 yilda “Chxonchxun” (“Yoshlik”) jurnalida Li Gvan Su shu mavzulardagi o’z romanlarini e’lon qila boshlagan. Bu yozuvchining asarlari zamonaviy koreys adabiyotining rivojlanishiga katta tasir ko’rsatgan.

Umuman, hozirgi davrga qadar roman koreys badiiy adabiyotining asosiy janri bo’lib qolmoqda. Janubiy Koreyaning yangi davr adabiyoti bevosita 1950-

---

<sup>13</sup> Силла 1<sup>^</sup>ироллиги (милоддан аввалги 57—милодий 935-йиллар) — уч Корея циролигининг биттаси. Силла 1<sup>^</sup>ироллиги тарихи милоддан аввалги 57 йилдан бош- ланади. Уша пайтда у Самхай коифедерацияси циролиқларининг биттаси булган. Силла бирии-кетии долган икки корейс мамлакати — 660 йилда Пэкчени ва 668 йилда Когурёни забт этади ва Бирлашган Силла давлатига асос солади. Милодий биринчи минг йиллик охирида бу салтанат яна уч корейс давлатига парчаланиб кетади. 935 йилда улар яна Корея номини олган давлатга бирлашади.

<sup>14</sup> Иоганн Генсфляйш цур Ладен цум Гутенберг (немисча: Johannes Gensfleisch zur Laden zum Gutenberg; тахминан 1397 ва 1400 йиллар — 1468) — биринчи немис матбаачиси. У 1440 йилда китобларни харакатланувчи литералар билан чоп этиш усу- лини кашф этган. Бу матбаачиликда инкилоб яратиб, факат Европа маданиятигагина эмас, шунингдек, жaxon тарихига хам улкан таъсир курсатган.

<sup>15</sup> Хангиль — 1446 йилда корейс сулолаларидан булган 1<sup>^</sup>ирол Се Жон томони- дан жорий этилган 28 харфдан иборат алифбо. Бу пайтгача корейслар хитой иерог-

yillarning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlanadi. Ana shu davrda davlatlari ikkiga parchalangan va Koreya Respublikasi tashkil topganidan keyin shu zaminda badiiy adabiyot bilan shug'ullanayotgan yangi avlod o'z asarlarini e'lon qila boshladilar. Ularning ko'pchiligi o'sha paytdagi urushda ishtirok etishgan, janggohlarda orttirgan shaxsiy xayotiy tajribalarini ijodlarining asosiy mavzusiga aylantirgan edilar. Janubiy Koreya yangi davri adabiyotining ana shu vakillari qatorida O San Von (1930—1985), So Gi Von (1930 yilda tug'ilgan), Chxve In Xun (1936 yilda tug'ilgan), Son Chxam Sop (1922— 1959) nomlari ajratib ko'rsatiladi. Ushbu yozuvchilar urushning dahshatli fojialari va buning millatdoshlari hayotidagi ayanchli oqibatlarini badiiy ifoda etish uchun noan'anaviy adabiy uslub va vositalarni qo'llay boshladilar.

Koreyadagi urushdan avvalgi adabiyot uchun ham tanish bo'lgan ekzistentsializm bu mamlakatning 1960-yillardagi badiiy adabiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Shu yillar Janubiy Koreya badiiy adabiyotining asosiy xususiyati — “sunsu munxak'dan (“sof adabiyot'dan) sochish va voqelik xayotda ko'ndalang qo'yayotgan mavzularga murojaat etishdir. Bunga yorqin misol sifatida Chan Yen Xakning (1921 yilda tugilgan) “Ioann poeziyasi”ni (1955) ko'rsatish mumkin. Unda tasvirlangan maxbuslar qamoqxonasi eng oddiy huquqlardan ham maxrum qilingan urushdan keyingi jamiyatning o'ziga xos ramzidir. Ekzistentsializm uslubini qo'llagan yana bir yozuvchi Son Chjan Sop (1922 yilda tug'ilgan) bu mavzuni rivojlantirib, o'z asarlarida xar qanday axloqiy qoidalarni pisand qilmaydigan, jirkanchlik botqog'iga botgan shaxslarning ta'sirchan obrazlarini yaratgan.

Janubiy Koreya badiiy adabiyotida xurlikka talpinayotgan, o'zligini izlayotgan shaxslar davr qaxramonlari sifatida tasvirlangan asarlar xam paydo bo'la boshladi. Bunday yondashuvni Chxvi In Xuning (1936 yilda tug'ilgan) “Maydon” romanida (1961) ko'rish mumkin. Ushbu asarda ham Janubiy Koreyadagi urushdan keyingi xayotning og'riqli muammolari ko'tarib chiqilgan.

“Maydon” romanida Koreya sohillaridan ochiq dengizga chiqqan Hindistonning “Tagor” kemasida Janub yoki Shimolni tanlash bo‘yicha bir qarorga kelish o‘rniga betaraf mamlakatga yo‘l olayotgan, bir gurux xarbiy asirlikdan ozod qilinganlarning ayanchli taqdiri o‘z ifodasini topgan. Ana shu kemani kuzatib borayotgan ikki baliqchi qush ramziy ma'noda biri — Janubdan, ikkinchisi Shimoldan bo‘lgan sevishtanlarning urush oqibatlari chilparchin qilgan muxabbatlari fojiasidek anglanadi. “Maydon” — Janubiy Koreyaning 1960-yillar badiiy adabiyoti ravnaqining timsoliga aylandi, roman kitobxonlar o‘rtasida katta muvaffaqiyat qozondi. U milliy adabiyotda yangi mavzu — “pundan munxak’ka” (“parchalangan millat adabiyoti’ga) asos soldi. Ana shu mavzuga yozuvchilar, shoirlar, dramaturglar takror va takror murojaat etadigan bo‘ldilar. Jumladan, Cho Chjon Nening “Txebek tizmasi” romani 1948 yilda Yosun shahrida ko‘tarilgan isyondan Koreya ikkiga bo‘lingan 1953 yilgacha bo‘lib o‘tgan voqealarni qamrab olgan. Epopeya darajasidagi bu asarda 100 dan ortiq personaj qiyofasi gavdalantirilgan bo‘lsa ham vositalar markazida ham aka-uka, ham mafkuraviy raqiblar — so‘llar tashkilotining raxbari Yom San Chjin va barrikadaning narigi tarafidagi Yom San Gu turadi. Romanning bosh g‘oyasi bu tarafkashlikka, umuman mamlakat parchalanganligiga barham berishga yo‘naltirilgan. Shuning uchun Txebek tizmasini Koreya yarim orolining sumbat sifatida ta’riflashganidek, bu asarni Janubiy Koreyaning sumbatiga qiyoslashadi.

Koreys adabiyotining taniqli namoyandasi, yozuvchi va shoir Xvan Sun Vonning (1915 — 2000) 60 yildan ko‘proq ijodi milliy adabiyot shakllanishining barcha bosqichlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Uning asarlari uchun an’anaviy uslubiy shakllarning yangi mazmun bilan boyitilishi xosdir. Xvan Sun Von Koreyaning noyob siymosini an’anaviy urf-odatlar va turmush tarzining butun latofati bilan namoyon qilish barobarida hozirgi davr jamiyatidagi insonning taqdirini juda chuqur tahlil etadi. Adibning 1954 yilda yozilgan mashhur “Kain avlodlari” romani xozirga qadar ijodining shox asari hisoblanadi. Bu romanda insonning ichki dunyosi, uning hissiyotlari nihoyatda ta’sirchan ifoda etilishi bilan birga insonni o‘rab turgan voqelik butun murakkabligi va ziddiyatlari bilan gavdalanadi. 1957

yilda Janubiy Koreyada birinchi marta madaniyat sohasida mukofot ta'sis etilganida "Kain avlodlari" birinchilar qatori unga sazovor bo'lgan. Xvan Sun Vonning "Quyosh va oy", "Qoyadagi daraxt", "Xarakatdagi Qasr" romanlari ham kitobxonlar tomonidan yuqori baholangan. Xozirgi vaqtda Janubiy Koreyada adabiyot sohasida Xvan Sun Von nomidagi mukofot Xam ta'sis etilgan.

Yangi davr yozuvchilari orasida Yaponiyada tug'ilgan, 1965 yilda Seul milliy universitetining fransuz adabiyoti fakultetini tugallagan Kim Sin Okning ijodi ajralib turadi. Uning "Mujinga sayohat", "Yashashga urinish", "Singilni anglab yetish" asarlarida xam tahlikali, xam zerikarli vaziyatda turmush kechirayotgan xudbinlar obrazlari yaratilgan. Ular o'z atroflarida bo'layotgan voqea va xodisalar uchun shaxsiy mas'uliyatini xis etmaydilar va butun umrlari tanxolik bulutiga qoplangan xolda o'tadi.

Kim Sin Okning ayniqsa "Seul. 1964 yil qishi" asari katta shov-shuvga sabab bo'lgan. Romanda odatiy insoniy munosabatlarning har qanday ma'nisi yo'qotilganligi ogohlantiruvchi bongdek yangraydi. Janubiy Koreya badiiy adabiyoti uchun adib asarining faqat mavzusi va mazmunigina yangilik bo'lib qolmagan. U shaklan ham betakrordir, aslida voqealar ham o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Yozuvchi maktabni bitirgan yosh yigitning yo'l yoqasidagi mayxonada tasodifan uchrashib qolgan o'rta yashar erkak bilan o'zaro suhbatini so'zma-so'z bayon qilgan. Bu suhbat juda jo'n, ba'zi joylarda esa mutlaqo ma'nosiz tuyuladi. Shu bilan birga asarda turmushning o'ta havoyiligi g'oyat muvaffaaqiyatli tarzda ifoda etib berilgan.

Janubiy koreyaliklar o'zlarining iste'dodli romannavislari, shoirlari va dramaturglarining, badiiy asarlar muntazam chop etiladigan ko'p sonli turli jurnallar va nashrlarining xaqiqiy ixlosmandlaridir. Bu mamlakatda hatto kundalik gazetalar ham doimiy ravishda yangi roman, qissa va hikoyalarni sonma-son e'lon qilib boradilar. Janubiy Koreyada har yili topshiriladigan qator adabiy mukofotlar ta'sis etilgan. Bu o'z qadimiy adabiyoti bilan haqli ravishda

gʻururlanadigan Janubiy Koreyada badiiy adabiyot tobora ravnaq topayotganligining yaqqol nishonalaridir.

Ushbu mamlakat adabiyoti asta-sekin jahonda ham tanilib borayotganligining dalolatiga yana bir chizgi. Janubiy Koreya poytaxti — Seuldagi Osiyoning eng yirik kitob magazinlaridan biri — “Kyoboning ulkan vitrinasida adabiyot sohasida Nobel mukofoti laureatlarining ismi-shariflari qayd etilib, surʼatlari ilib qoʻyilgan. Bu qatordagi ramkalardan biri boʻm-boʻsh. Ammo uning tagida quyidagi yozuvga koʻzingiz tushadi: “Adabiyot sohasida boʻlajak Nobel mukofoti laureate - koreys uchun...”

Kitobxonlar eʼtiboriga havola etilayotgan, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist Erkin Ernazarov tomonidan rus tilidan tarjima qilingan “Oltin qanotli qush” qissasi Janubiy Koreyaning hozirgi davrdagi eng mashxur va mumtoz yozuvchilaridan hisoblangan Li Mun Yol qalamiga mansubdir. Li Mun Yol (1948 yil 8 mayda tugʻilgan) Seul milliy universitetini tugallagan. 1985 yilda u tomonidan tashkil etilgan yosh mualliflar ijodiy studiyasi bugungi kunda mamlakatdagi birinchi “Puak” Adabiyot akademiyasiga aylangan. Li Mun Yol 1994—1997- yillarda ana shu akademiyada koreys tili va adabiyotidan dars bergan, 1999 yildan akademiya rektori.

Li Mun Yol “Inson oʻgʻli”, “Imperator ahli”, “Imperator tabrigi”, “Shoir” romanlarining, koʻplab qissa va hikoyalarning muallifidir. Yozuvchi tomonidan qayta ishlangan oʻn bir jildlik “Uch podsholik” mumtoz romanlar turkumi 11 million nusxada sotilgan. Li Mun Yol Janubiy Koreyaning adabiyot sohasidagi eng nufuzli mukofotlariga sazovor boʻlgan, adibning qator roman va qissalari boshqa tillarga tarjima qilingan, teatrlarda sahnalashtirilgan, ular asosida badiiy kinofilmlar yaratilgan. “Oltin kanotli qush” qissasi 1982 yilda Janubiy Koreyaning adabiyot sohasidagi nufuzli Kim Tonin mukofotiga loyiq topilgan.

Li Mun Yol bugungi kunda Koreyaning sevimli yozuvchilaridan biridir. Uning asarlari kitobxonlar qoʻlida qoʻlma-qoʻl boʻlib oʻqiladi. Deyarli har bir fuqaroning

uyida uning asarlarini uchratish mumkin. Yuqorida keltirib o'tgan hikmatlarimiz uning "Oltin qanotli qush" asaridan olingan. Birgina shu asarining o'zi ham uni buyuk ijodkor ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu qissada insoniy qadriyatlarining falsafasi asar qahramoni — taniqli rassom va xattot Ko Chjuk taqdiri orqali ma'joziy ifodasini topgan. Shogirdlik paytidayok uning iqdiddori ma'lum bo'ladi. Ustozi unga ijodda yuksak ruh his etilmasa, tasvirlar shunchaki bo'yoqlardangina iborat bulishini uqtirgan. Ko Chjuk dunyo tanigan rassom darajasiga ko'tarilgan bo'lsa ham faqat umrining so'nggi kunlarida o'zida o'sha yuksak ruxni tuymaganligini, erishgan shuxratining o'tkinchiligini anglab yetadi. U turli o'lkalarga tarqalib ketgan mashhur asarlariga o'zi o't qo'yganda, alanga uchkunlarida butun hayoti davomida ko'rishni orzu qilgan o'sha yuksak ruh ramzi — oltin qanotli qush gavdalanadi. Asar qahramoni umri davomida boshqa ijodkorlarga taqlid qilib ijod qildi. Ustozini toki u vafot etguncha yomon ko'rdi. Uning vafotidan keyin esa ko'nglidagi o'tinch, afsuslanish tuyg'usi uni ustozining uyiga yetakladi. Qalbidagi oylar unga o'tmishini eslatib turardi. U o'tmishida ijodini arziyas chaqalarga sotgan, o'xshar o'xshamas asarlarini ayollar va may uchun sarflagan edi. Ustozining uyida vafot etguncha shogirdlar tayorladi, ustozining ishlarini davom ettirdi. Butun umr oltin qanotli qushni asarlarida jilva ko'rsatishini xohlab yashadi. Lekin u bu tuyg'uni asarlaridan topolmadi. U o'zini yuksaklikda, komillik darajasida his etmadi. Butun umri samarasiz kechganligini o'ylagan Ko Chjuk shogirdiga chizgan rasmlarini butun mamlakat bo'ylab yig'ib chiqishini tayinladi. Bu jarayonda o'zi ham qatnashdi. Chunki, u sabr qila olmas edi, umri poyoniga yetayotgan edi. Boshini ko'tarishga majoli yo'q Ko Chjuk o'rnidan turdi. Xuddi sog' odam kabi asarlarini yoqishni buyurdi. Shogirdi o't qo'ydi. Asarlar alanga ichida qoldi. Odamlar uchun bir qop pul yonayotgan edi. Ko Chjuk uchun esa samarasiz hayoti. Alanga ichida nihoyat qush ko'rindi. Uning boshida — "Istaklar ijrosi duri". U olov purkaydi va ajdaxolarni yeydi. U hamma tomonidan dengizlar bilan qurshalgan Sumeru tog'ida yashaydi. Bu qush — Budda qonunini qo'riqlaydigan sakkizta ilohning beshinchisidir. Ko Chjuk umri yakunida komillik sari qadam qo'ydi.

Li Mun Yol hikmatlari:

1.Oltin qanotli qush dengizni teshib o'tmoqda,

Xushbo'y isi anqigan fil daryo kechmokda.

2.Xayoti go'yo tog' bag'irlab vaznsiz oxista xarakatlanayotgan bahorgi bulut soyasi kabi, go'yo esib qolgan yoz shamoli supurgan xovli singari, go'yo ovloq tog' darasidagi kuzgi irmoklar suvidek, go'yo qor yog'ib o'tgandan keyingi ochiq va sarhadsiz qishki osmondek tiniq, sokin, ma'yus va yolg'iz edi.

3.Inson emasga — ta'lim bermayman.

4.Azob-uqubatsiz iqtidor qalbning haqiqiy asoslar sari yo'liga to'siq bo'ladi.

5.Bu hikmatning ma'nosi shunday: moviy dengizga otilib, ajdahoni yulib oladigan va ko'kka o'qday otiladigan Oltin kanotli qush kabi shijoatli bo'l; xushbo'y hidini anqitib, daryodan shoshmay kechib o'tayotgan fildek qat'iy bo'l.

6.Olxo'ri butun umri bo'yi sovuqqotsa ham, xidini sotmaydi.

7.Orxideyalarining yalang'och ildizlari — halok bo'lgan mamlakatga motam ramzidir.

8.Yozuv shaklida birinchi qoida quyidagidan iborat bo'lishi kerak: avvaliga qalbingni hamma bexalovatliklardan xalos qil, keyingina qo'lingga mo'yqalam ushla. Sening xarakatlaring falakning aylanishi kabi bo'lishi kerak: samoning o'rtasida osmonning o'qi joylashgan. Uning atrofida aylanish ro'y beradigan janubiy qutbi va shimoliy qutbi bo'lgani kabi mo'yqalamning harakati qo'l panjalari bilan, qo'l panjalari harakati barmoqlar bilan, barmoqlarning harakati bilak bilan, bilakning harakati qo'll bilan, qo'lning harakati yelka bilan amalga oshiriladi — tananing butun o'ng yarmi xarakati shu tarzda sodir bo'ladi.

9.Buni yuz marta yozib chiqsang — husnixating boshqalarga namuna bo'ladi; buni ming marta yozib chiqsang — maqto'v eshitasan; buni o'n ming marta yozib chiqsang — seni mashxur xattot deb atashadi.

10. Buddha holatida o'tirish Buddha bo'lishni anglatmaydi, biror vositasiz ajdaxoni tuta olmaysan. Faqat ko'p marta urinishlardan keyingina biror narsani eplay olasan.

11. Rangtasvir va xattotlik — ruhning ifodasi.

12. Agar xattotlik yoki rangtasvir atigi dunyoga qayg'u va alamni ma'lum qilish vositasi deb xisoblanadigan bo'lsa, san'at ma'nisiz mashg'ulotga aylanib qolmaydimi?

13. Xonada o'tirib, g'arov barglarini yulish va olxuri gullarini sidirish — o'zingni ham, uzgalarni ham aldash demakdir.

14. Ijodda yuksak ruh namoyon bo'lmas ekan, rasmdagi qora rang shunchaki qora siyoh, oqi esa shunchaki qog'oz bo'ladi.

15. Qobilyat — hikmatning nurlanishi, ko'nikma esa — uning po'stlog'idir. Agar hikmatga amal qilinmasa, qobilyat o'z ifodasini topmaydi va ko'nikma egallanmaydi.

16. Son-sanoqsiz sochlar birgalikda — kuch.

17. Haqiqatdan ko'z yumib bo'lmaydi.

18. Hatto qabr toshlarini ham shamol va yomg'ir yemiradi — shunday ekan, qog'oz bilan qora siyoh qanchaga chidaydi?

19. Suymagan bolang doim ko'p ovqat yeydi.

20. Dengiz suvini qancha ko'p ichsang, shuncha tomog'ing quriydi.

21. Qo'shnisining yonayotgan uyida loviyasini qovurib olishni eplashtiradiganlar hamisha topiladi.

22. Tog' kulsa — dala yig'laydi, dala yig'lasa — tog' kuladi.



22.Oltin qanotli qush.Uning boshida - “Istaklar ijrosi duri”. U olov purkaydi va ajdaholarni yeydi. U hamma tomonidan dengizlar bilan qurshalgan Sumeru tog‘ida yashaydi. Bu qush — Budda qonunini qo‘riqlaydigan sakkizta ilohning beshinchisidir.

23.Agar sen hech bo‘lmasa bir marta mo‘yqalaming ostidan chiqayotgan bitikda hayotni ko‘ra olsang — maqsadingga erishgan bo‘lasan.

23.Rassomning san'ati Buyuk daryo suvlari kabidir. Xattotning mahorati yolg‘iz qarag‘ay kabidir.

24.Qalb jarohatlari darrov bita qolmaydi.

25.Uning uchun xotini va farzandlari nobop poyafzaldek edi, qissa ham chidashi va kiyib yurishi kerak edi.

26.Yuksak san'atning mohiyati — falsafa, uning asosiy ma'nosi — Yo‘lni va Maxliyo bo‘lishni majoziy aks ettirishdir.

27.Tangrining marxamatiga sazovor ijodkor rassom xisoblanadi.

28.Agar bitiklar ijodi faqat ma'noni yozuv belgilari orqali ifoda etishdan iborat deb xisoblansa, u o‘ziga hayotni baxshida qilish uchun arzimaydi. Bir necha oy ichida mo‘yqalam yordamida ma'noni ifoda etishni egallab olish mumkin, hozir qalam yoki ruchka kabi oddiy yozuv qurollari paydo bo‘lgach, bunga bir necha kun kifoya kiladi. Biroq xattotlikning mohiyati ma'noni ifoda etish emas, balki iyerogliflarni chizish jarayonida tug‘iladigan muhabbatdir; shuning uchun iyeroglifni ma'no belgisi emas, ma'nodor sur‘at sifatida tushunish darkor.

29.Bitiklarning xushbo‘y isi va kitobiylik ruhi umuman san'atning asosi emas, balki atigi “qalb sur‘atining unsurlaridan biridir.

Li Mun Yolning hikmatlari uning ruhidagi falsafiylik yuqori ekanligini ko‘rsatadi.O‘zbek adabiyotida Li Mun Yolga tenglashtirish mumkin bo‘lgan ijodkor O‘tkir Hoshimovdir.Bu ikki adib deyarli tengdoshdir.Har ikkisi o‘zining

yurtida sevimli yozuvchiga aylanib ulgirkan.O‘tkir Hoshimov ham falsafiy mushohadaga ega ijodkor.Asarlari hikmatlarga to‘la.Hikmatlarida hayot chiroyli va o‘tkir piching bilan aks etadi.Xuddi yuqorida ko‘rib chiqqanimiz Li Mun Yol hikmatlari singari.

O‘tkir Hoshimov hikmatlari:

### 1. “Tabiat gultoji”

Kiyik och qolmaslik uchun ko‘kat yeydi. Amma bir-birini o‘ldirmaydi. Sher och qolmaslik uchun kiyikni yeydi. Ammo bir-birini o‘ldirmaydi. Odam ko‘katni ham yeydi. Kiyikni ham yeydi. Ko‘ngil hushi uchun sherni ham o‘ldiradi... Keyin.. urush qilib, bir-birining boshini yeydi...

### 2. Otalar va bolalar

U oddiy odam edi. Hammolchilik qilardi. To‘rt qiz, uch o‘g‘ilni oyoqqa turg‘azdi.O‘g‘illarini uylantirdi. Qizlarini chiqardi. Hammasini uyli-joyli qildi. Ko‘z yumayotganida “hammalingdan mingdan-ming roziman”, dedi... Qarashsa, kafanligi yo‘q ekan...

### 3.Gumroh bandalar

Odamlarga hayronsan. Ota-onasi tirikligida ikki og‘iz shirin so‘zni tekinga aytmaydi-da,ular o‘lganidan keyin ming-ming pul sarflab, o‘sha so‘zlarni qabrtoshga yozdirib qo‘yadi...

### 4. Laylak

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g‘or edi, bola go‘dak edi... Kunlarning birida onabola qishloqqa –uzoq qarindoshlarinikiga boradigan bo‘lishdi. Ona qaddini g‘oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang qilib atrofdagi manzaralarni tomosha qilar edi.Qishloq guzarida yarmini yashin uchirib ketgan bahaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni ko‘rib angrayibqoldi: chinorning tarvaqaylab o‘sgan shoxida supradek kattakon uya

qorayib ko‘rinar, uyada esa oyog‘i, tumshug‘i uzun bir qush turar edi.

Bola mo‘jiza ko‘rgandek taqqa to‘xtab qoldi.

- Anavi nima, oyi?- dedi o‘sha tomondan ko‘z uzmay.

-Laylak, o‘g‘lim, laylak!- ona o‘g‘lining boshini silab qo‘ydi. – Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko‘rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi.

U yana to‘xtab qoldi.

-Nima u, oyi? –dedi tag‘in chinor uchiga ko‘z tikib.

-Laylak, o‘g‘lim, laylak.

- Nimaga bir oyoqda turibdi?

Ona kuldi:

- Bir oyog‘i charchagandir-da. Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko‘rmagan edi. Qush negadir bo‘ynini cho‘zib tumshug‘ini osmonga qaratib silkitar, shunda “tarak-tarak” degan ovoz eshitilardi. Bola tag‘in to‘xtab qoldi.

- Nima o‘zi u, oyi?

Uning ko‘zlarida quvonch bor edi. Hayrat bor edi. Ona shoshib turardi. Mingta yumushi bor edi. Hali shaharga qaytishi kerak.

-Laylak dedim-ku, jinnivoy,- deb ohista egilib, o‘g‘lining yuzidan o‘pdi. – senga salom

beryapti-da.

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi.

... Oradan o‘ttiz besh yil o‘tdi. Bola yigit bo‘ldi. Ona keksayib qoldi. Oyog‘idan mador,

ko‘zidan nur ketdi. Kunlardan birida ona-bola ittifoqo yana o‘sha qishloqqa borib qoldilar. Yigit qaddini g‘oz tutib tez-tez yurib borar, ona esa toliqqan oyoqlarini, og‘ir-og‘ir ko‘tarib bosgancha harsillab kelardi. Guzardagi yarmini yashin uchirib ketgan chinor hali ham bor ekan. Buni qarangki, chinorning tarvaqaylab o‘sgan shoxida hamon supradek kattakon uya qorayib ko‘rinar, uyada esa oyog‘i, tumshug‘i uzun laylak turardi. Yigit laylakka bir qarab qo‘ydiy qadamini tezlatdi.

Orqada kelayotgan ona nursizlanib qolgan ko‘zlarini chinorga, chinor shoxida qorayib turgan uyaga tikdi. Shoxda osilib turgan narsa ko‘ziga g‘alati ko‘rindi.

- Anavi nima, o‘g‘lim? – dedi to‘xtab.

-Laylak, oyi, laylak!

Ona yaxshi eshitmadi. Uch-to‘rt qadam yurib yana to‘xtab qoldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarib ko‘rinyapti. Qiziq...

-Nima, o‘g‘lim? – dedi ko‘zlarini pirpiratib. O‘gil taqqa to‘xtadi. G‘ashi keldi. O‘zi shoshib turibdi: mingta ishi bor! Odam qariganidan keyin ezma bo‘lib qolarkan-da!

-Laylak! –dedi jerkib. –Laylak deyapman-ku, karmisiz!

Shunday dedi-yu, jahl bilan tez-tez yurib ketdi. Nachora, yigit yosh, yigit navqiron.Uning yumushi ko‘p. hali shaharga qaytishi kerak... Uning yumushi ko‘p. hali shaharga qaytishi kerak... Uning g‘or, go‘dak bolalari bor...

## 5. Tarix “xatosi”

To‘qqizinchi asr. Muhammad al- Xorazmiy algebra faniga asos soldi.

O‘ninchi asr. Abu Nasr Forobiy Aristotelning “Metafizika” asariga ehg mukammal sharh yozib, “ikkinchi ustoz” unvonini oldi.

O‘n birinchi asr. Abu Rayhon Beruniy Yer bilan Oy o‘rtasidagi masofani o‘lchadi. Ibn Sino medetsina Qomusi- “Tib qonunlari” ni yaratdi.

O‘n to‘rtinchi asr. Sohibqiron Amir Temur Yevroosiyoning yarmini tasarrufga oldi. Ahli ilm boshini silab, o‘lmas obidalar yaratdi.

O‘n beshinchi asr. Ulug‘bek 1019 yulduzning harakat jadvalini tuzdi. Alisher Navoiy o‘lmas “Xamsa” sini yozdi.

O‘n oltinchi asr. “Boburnoma” olamga tarqaldi.

O‘n yettinchi asr. Shohjahon dunyodagi yeti mo‘jizaning biri- “Tojmahal” ni bunyod etdi.

Yigirmanchi asr. O‘zbek-sovet olimlari misli ko‘rilmagan “ixtiro” qildilar: tarix “xato” sini tuzatib, o‘tmishda biz yoppasiga “savodsiz” bo‘lganimizni isbotlab berdilar...

## **6. Gunohi - azim**

Do'stni ho'rlash-gunoh. Umr yo'ldoshini ho'rlash- yuz hissa gunoh. Ota-onani ho'rlashming hissa gunoh. Go'dakni ho'rlash- cheksiz gunoh.

## **7. Munofiq**

Onasini behurmat qilgan odam qo'shni kampirni yaxshi ko'raman desa, ishonmayman. O'z xalqining tilini, madaniyatini, tarixini hurmat qilmagan odamboshqa xalqlarning tilini, madaniyatini, tarixini hurmat qilaman, desa ishonmayman.

## **8. Ona tili**

Qancha ko'p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko'radi, ona tilida yig'laydi... o'lim oldida onasini ona tilida yo'qlaydi...

## **9. Oliy jazo**

Afrika qabilalaridan birida jinoyat qilgan odamni sazoyi qilish, qamab qo'yish, qatl etish degan gaplar yo'q ekan. Tanho o'zini qabiladan haydab yuborisharkan, xolos...

## **10. Ketmas boylik**

Menda bir so'm bor. Sizda ham bir so'm bor...

Men sizga o'zimning pulimni berdim.

Siz ham menga o'zingizning pulingizni berdingiz...

Hech nima o'zgarmadi. Sizda ham bir so'm pul qoldi, menda ham...

... Menda yangi bir fikr bor. Sizda ham yangi fikr bor...

Men sizga yangi fikrimni aytdim. Siz ham menga yangi fikringizni aytdingiz...

Sizda ham ikkita fikr paydo bo'ldi, menda ham...

Esli odam pul almashmaydi. Fikr almashadi.

### **11. Odob**

Farzandga oson tutmang. Otaning yuziga tik qarolmaydi.

Otaga oson tutmang. Farzandiga dardini ayta olmaydi.

### **12. Majnuntol va qamish**

Majnuntolning bosh egib sukut saqlashi donoligi va chayirigidan.

Qamishning g'oz turib shovullashi nodonligi va mo'rtligidan... qiziq, ikkalasi ko'pincha yonma-yon o'sadi...

### **13. Jinoyat**

O'z ko'nglidagi mehrni o'ldirish odam o'ldirishdan og'irroq jinoyatdir. Negaki har qanday razillik bemehrlikdan boshlanadi...

### **14. Ustoz**

Ustoz otangdan ulug', deganlari bejiz emas, Ota hayot beradi. Ustoz esa yashashga o'rgatadi. Tug'ilish oson, yashash qiyin...

### **15. Vatan tuyg'usi**

Qaysi yurtda non arzonroq bo'lsa, o'sha yerga ko'chib yuradigan odamda Vatan tuyg'usi bo'lmaydi.

16. Deraza-oynadan yasaladi. Ko'zgu ham. Farqi shuki, ko'zgu o'zingni o'zingga ko'rsatadi. Deraza esa hammasini ko'rib turadi-yu, o'zini ko'rmaganga soladi... Ko'zguga ko'proq qara!

17. Menga yuz marta ozor bersang, kechirishim mumkin. Onangga bir marta ozor bersang, kechirmayman: onang senga mendan ko'ra yuz hissa ko'p mehr bergan!

18. Noningni yo'qotsang yo'qot, nomingni yoqotma!

19. -Iste'dodli iste'dodsizni yomon ko'rsa nima bo'ladi?

- Hech nima bo'lmaydi.

-Iste'dodli iste'dodlini yomon ko'rsa nima bo'ladi?

- Fojia bo'ladi!

20. Iste'dodlilar ha deganda qovusha qolmaydi. Ular yulduzga o'xshaydi. Har bir yulduzning o'z mehvari bo'ladi. Yulduzlar bir-birini inkor etmaydi. Ammo bir-birining mehvariga kirmaydi ham. Iste'dodsizlar esa bir zambil shag'aldek gap. Darrov to'dalashadi. To'da bo'lib jim yotsa-ku, mayli... Baraka topgurlar iste'dodlilarga tosh otaverib bezor qilgani chatoq...

Bu ikki millat yozuvchilarining fikrlarida jamiyatda kuzatgan o'y fikrlar jamlangan. Har bitta fikr insonni mushohadaga chorlaydi. O'tkir Hoshimov o'z kuzatishlari haqida shunday degan: "Aziz o'quvchim! Bu kitobchani qariyb qirq yil yozdim. Bular mening kuzatuvlarim. O'ylarim... bir qadar armonli, bir qadar istehzoli, bir qadar tabassumli. Xulosalarim...aslida, ularning har birini alohida asar qilsa ham bo'lardi-ku... mayli... Men bularni uzoq o'ylab yozganman. Iltimos, Siz ham kitobni shoshilmasdan, o'ylab o'qisangiz..."

Adabiyot fani o'quvchilarni fikrlashga undashi kerak. Ularning inson bo'lib shakllanishida adabiyotning o'rni beqiyos. Bu hikmatlarni bejiz keltirmadik. Maktabda dars davomida o'quvchilarning yoshidan kelib chiqib "Mustahkamlash" darslarida hikmatlardan foydalanish mumkin. "Yunon-fin" maktablarida o'quvchilarning grammatik xatolariga e'tibor bermasdan dastlab ularning fikrlash qobiliyati rivojlantirilgan ekan. Bundan maqsad o'quvchilar fanlarni o'zlashtirishga qiymalmasligi va amaliyot jarayonida, hayoti davomida qiyinchiliklarga duch kelganda o'z fikrlari bilan muammolarni mustaqil hal qilishga o'rgatishdir. O'zbekistonda ham shu fikrlarga amal qilgan tarzda ta'lim tizimida ko'proq fikrlashga oid asarlar, hikmatlardan foydalanishni eng samarali usulga aylantirish kerak. Zero, mamlakatga fikrlaydigan, o'z mustaqil qarashlariga ega bo'lgan yoshlar juda ham zarur. Shuning uchun o'zbek va jahon adabiyoti namunalarini solishtirib o'rganishni ta'lim tizimiga kiritish, Deyarli har bir dars tarkibida "Mustaqil fikr" qismini tashkil qilish kerak. O'qituvchi tomonidan darsga

mo'ljallangan hikmatlar doskaga yoziladi. O'quvchilar tomonidan hikmatlar tahlil qilinib, darsning oxirida ularning fikri o'qituvchi tomonidan xulosalanadi. Hikmatlarni tahlil qilish uchun ma'lum bir vaziyat sahna ko'rinishi yoki videofilmlar orqali berilsa o'quvchilarning vaziyatni tushunishi osonroq bo'ladi.



### **III.BOB.Ishning amaliyotga tatbiqi.**

#### **3.1. “O‘qitish” va “O‘rgatish” tamoyillari.**

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri – bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikdagi faoliyati bo‘lib, asosan o‘quvchilarni fikrlashga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o‘zini tahlil qilishni va amaliyotda qo‘llashni o‘rgatadi. O‘qituvchining asosiy vazifasi bu erda o‘quvchilarga yo‘l ko‘rsatish, yo‘nalish berish, eng to‘g‘ri xulosani aytishdan iborat.

Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o‘qituvchi o‘quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to‘g‘ri xulosani aytib o‘tib ketadi. Natijada o‘quvchi xatosini o‘zi tushunib oladi<sup>16</sup>. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi holatlarning oldini oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi holatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro hurmatga asoslanadi. O‘qituvchi qanday bo‘lmasin o‘quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o‘quvchilarni bir-birlarini tinglashga o‘rgatadi. e‘tirozlar, qo‘shimchalar ham “hurmatli”, “sizning fikringizga qo‘shilgan holda”, “bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi” kabi so‘zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o‘quvchi o‘zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda hech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o‘rganadi.

Interaktiv metodlar o‘quvchilarda doimiy faollikni ta‘minlaydi. O‘quvchilar dars davomida bo‘sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo‘ladilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi. Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi “interaktiv” metod bo‘lib, hozirda uning chala tarjimasi ko‘p hollarda “interfaol” deb yuritiladi, “interaktiv” atamasi aslida inglizcha “interaktiv” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘zaro ta‘sirlashish” ma‘nosini bildiradi va biror faoliyat

---

<sup>16</sup> Jo‘raev R.H., Rahimov B.X., Xolmatov Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta‘limga asoslangan o‘quv – metodik qo‘llanma.-T.: Fan, 2005.-66 b.

yoki metodda o'zaro bahs- munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjihatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o'quv qo'llanmalarini varaqlaganimizda "o'qitishning interaktiv metodlari" termini qo'llanishini ham guvoxi bo'ldik. Ta'lim berish jarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganingiz emas, balki sizning ta'limingiz qanday tashkil etilishidadir. Ta'lim va o'qitish asoslarini tuzuvchilar unga o'quv kontekstini kiritishni, yangi darsning tuzilmasini qurishni taklif etadilar. O'qitish mazmuni aqliy hujumdan boshlanadi. Misol uchun Kitg Xayning (dengiz toshbaqalari) deb nomlangan kichik maqolasini o'qib chiqish taklif etiladi. Oldin o'qib chiqib dengiz toshbaqalari haqida biroz o'ylab olish taklif etiladi, buning uchun muhokama qilish uchun sherik tanlanadi. 3-5 minut davomida sherigi bilan hamkorlikda toshbaqalar haqida mavjud bilimlar yozib chiqiladi, miyaga qanday fikr kelsa, hammasini yozib olish kerak. Yozilgan narsaning to'g'ri noto'g'riligi ahamiyatga ega emas, iloji boricha ko'proq ma'lumotlar yozish muhimdir. Sheriklar muhokamani yakunlaganlaridan keyin guruhlar a'zolaridan dengiz toshbaqalari haqidagi o'z bilimlari bilan o'rtoqlashishlari taklif etiladi. O'quvchilar o'z fikrlarini gapirib berar ekanlar, ularni doskadagi qog'ozdan yozib berish kerak. Har qanday kelishmovchiliklar muxokamaga olib chiqilishi kerak. Ana shu ish jarayoni davomida vaqti-vaqti bilan aytilgan gaplar to'g'rimi deb savol berib turish zarur. Bundan tashqari muhokama etilayotgan savollar bo'yicha o'rtoqlik tortishuvlari, turli fikrlar va qarama-qarshi fikrlarga yo'l berib turish maqsadga muvofiq bo'ladi<sup>17</sup>.

Yangi g'oyalar va tanishuvlardan ba'zilar qarama-qarshi xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Bularni sinfda aniqlab, tahlil etish mumkin, chunki qarama-qarshliklar shaxsiy savollarni vujudga kelishiga olib keladi. Shaxsiy savollari esa o'qish va tushunish uchun xarakatlantiruvchi kuch bo'lishi mumkin.

Aqliy hujum-muammolarni hal qilishda keng qo'llaniladigan samarali metoddir. U qatnashuvchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi. U

---

<sup>17</sup> Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.:2003.-174b.

berilgan har qanday muammoga ko‘p sonli to‘g‘ri yechimlar topishga yordam beradi<sup>18</sup>. Dars mashg‘ulotlariga o‘tiladigan mavzu qirralarini qarama-qarshiliklarini ko‘rsata olish sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish o‘zaro munosabatlarini bildirib himoya eta olish asoslab berish, boshqa ishtirokchilarning fikrlarini tinglay olish, baholash maqsadida ushbu metodni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu dars maqsadi birgalikda o‘qitishga ko‘maklashuvchi uslubiy yo‘llar ya‘ni o‘quvchilarga jamoada o‘qitish yo‘li bilan bilim olishlari to‘g‘risida tasavvur berish.

Bu metodda qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. Ishtirokchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.
2. Har bir o‘quvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g‘oyalar miqdori rag‘batlantirib boriladi. Va fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi, fikrlarni rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g‘oyalarning tug‘ilishiga olib keladi.
3. Har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikr yoki g‘oyalariga asoslanishi hamda ularni o‘zgartirishi mumkin. Oldin bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin yaratadi.
4. Mashg‘ulot paytida o‘quvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar ularni fikrlari baholanib boriladigan bo‘lsa, o‘quvchilar o‘z diqqatlarini o‘axsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatida ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Bu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag‘batlantirish ekanligini e‘tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

---

<sup>18</sup> Jo‘raev R.H., Rahimov B.X., Xolmatov Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta‘limga asoslangan o‘quv – metodik qo‘llanma.-T.: Fan, 2005.-66 b.

O'zbek tomoshabinlari televideniya orqali koreys seriallarini miriqib tomosha qilishadi. Lekin Janubiy Koreya adabiyotidan u qadar xabardor emaslar. Umuman, bu mamlakat yozuvchilari, shoirlari, dramaturglarining asarlari jahonda ham xozircha u qadar mashxur emas. Koreya Respublikasi badiiy adabiyot tarjimalari institutining ma'lumotlariga qaraganda, so'nggi 20 yil mobaynida bu mamlakat badiiy adabiyotga taalluqli 2340 asar 27 ta tilga o'girilgan. Biroq Koreya Respublikasi ma'daniyat, sport va turizm vazirligining e'lon qilingan ma'ruzasi xulosalariga ko'ra, tahlil qilib chiqilgan 70 ta tarjimaning faqat

yettitasini, ya'ni har o'ntasidan bittasini muvaffaqiyatli chiqqan deb xisoblash mumkin. qolgan aksariyat tarjimalar badiiy saviyasining darajasi asliyatga to'la mos tushmaydi. Bu, ko'p jihatdan, tarjimonlarning asarlar asliyatining tili - koreyschani mukammal egallamaganliklari bilan izohlanadi. Shu sababli dunyoda Janubiy Koreya badiiy adabiyotining o'ziga xosligi va qiymati to'g'risida to'liq va chuqur tasavvur shakllanmagan.

Biz tajriba sinov jarayonini Toshket shahri Shayxontoxurr tumanidagi XTBga qarashli 34-umumiy o'rta talim maktabida olib bordik. Faoliyatimiz jaraayonida biz 5,6 va 10-sinflarda mazkur bitiruv malakaviy ishimizni amalda sinab ko'rdik. Amaliyot natijalari esa ijobiy. Ta'lim jarayoniga koreys adabiyotini kiritish mumkin degan xulosaga keldik. Beshinchi va oltinchi sinf ona tili va adabiyoti jarayonini kuzatdik. Kuzatuv jarayoni natijalari shunday bo'ldi:

1. O'zbek sinflardagi o'quvchilar qoidalarni yaxshi bilishadi. Uni amaliyotda mustaqil qo'llay olishadi.
2. Rus sinf o'quvchilari esa qoidalarning ko'pidan bexabar. O'rgangan qoidalarini amaliyotda qo'llash ko'nikmasiga ega emas.
3. O'zbek sinf o'quvchilari ma'daniyat darajasi qoniqarli emas (darsda o'zini tutishi, sinfdoshlariga bo'lgan munosabati).

- 4.Rus sinf o‘quvchilarida tarbiyaviy jihatdan kamchiliklar kuzatmadik.
- 5.O‘zbek sinflari o‘quvchilari uy vazifalariga bir tomonlama yondoshadi.
- 6.Rus sinflari esa uy vazufalariga ijodiy yondashadi.
- 7.O‘zbek sinf o‘quvchilarida fikrlash,o‘ylash qobiliyati faqat bolalarcha sodda.
- 8.Rus sinflari kattalardek xuddi o‘sha vaziyatda o‘zlari bo‘lgandek fikrlashadi.Masalaga hamma tomonlama yondashadi.

Ushbu tajribalar 5 va 6-sinflarda olib borildi.Har ikki sinfga ona tili va o‘zbek tili fanlaridan bir xil o‘qituvchilar kiradi.Lekin,natijalar har xil.Ularga amaliyotimiz jarayonida turli savollar bilan murojaat qildik.Savollar fikrlashga oid bo‘lib, ular tanigan va tanimagan o‘zbek va jahon adabiyoti namunalari edi.Tanimagan asarlari oldin o‘qib berildi.Jumladan,quyidagi savol bilan murojaat qildik: “Sariq devni minib” asari qahramoni maktab direktoriga xat yozib maktab dars jadvalidan “Matematika”, “Fizika” fanlarini olib tashlashni,bu fanlarning o‘rniga futbol va shaxmat to‘garagini kiritishni iltimos qiladi.Savol:Hoshimjon maktubiga qanday qaraysiz?Uning maktubidagi so‘zlarga qo‘shilasizmi?Javoblar:

O‘zbek sinflarda;

- 1.Deyarli 70% o‘quvchi Hoshimjonni qoraladi.
- 2.Qolgan 30%o‘quvchi o‘z fikriga ega emas.

Rus sinflarda:

- 1.10%foiz o‘quvchi Hoshimjonni qoraladi.
- 2.Balki, Hoshimjon yoshligida ushbu fan o‘qituvchilaridan yaxshi o‘qimagandir.Bunga sabab esa,o‘qituvchisi uni dars jarayoniga qiziqтира olmaganidir.
- 3.Balki shaxmat bilan futbolni tanlaganida jaxon chempioni bo‘lishi mumkin edi.
- 4.Maktabda dars jarayoniga kiritilgan fanlarni o‘qish kerak.

5.Ota – onasi uni futbol va shaxmat to‘garagiga berganida o‘zi qiziqqan mashg‘ulotlar bilan ovora bo‘lib yomon yolg‘a kirmasdi.Sexrli qalpoqchani emas o‘zining kuchiga ishongan bo‘larmidi.

Natijalardan ko‘rinib turibdiki rus sinflarida fikrlash qobilyati yetarli rivojlangan.Ular o‘zi uchun yetarli xulosa chiqara oladi.Biz tajriba- sinov ishlarimizda quyidagi xulosalarga keldik:Rus sinflarda ikki davlat adabiyoti va ma’ daniyati birlashgan.Ular chet el adabiyotini ham o‘rgangan.Shuning uchun ular keng fikrlaydi.Ushbu xulosalardan kelib chiqib biz adabiyot ta’lim jarayoniga chet el millatining yaxshi urf odatlari va fikrlashga majbur qiladigan asarlari ro‘yxatini kengaytirishni tafsiya qilamiz.Adabiyot darslarida ko‘proq nazariy ma’lumotlardan chekinib,asrlarni amaliyotda qo‘llash jarayonini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir.Masalan oquvchilarni asr muhitiga solish,ularni xuddi voqea bosh qahramani darajasiga chiqishga undash kerak.Bunda eng samarali vosita kichik-kichik saxna ko‘rinishlaridir.Har kim o‘z rolini bajarish orqali asr mohiyatini tushunib yetad.

Koreya adabiyotini, jumladan, Li Mun Yolning“Oltin qanotli qush”asarini o‘rgatishda quyidagi metodlarni tafsiya qila olamiz:

## **1. “QIZIL-YASHIL” TEXNOLOGIYASI**

**QOIDASI:** O`quvchilarning har biriga qizil va yashil kartochkalar tarqatiladi. O`qituvchi ma`lumotlarni aralashtirib o`qiydi ya`ni to`g`ri va noto`g`ri savollarni. To`g`ri savollarga yashil, noto`g`ri savollarga qizil kartochka ko`tarilishi kerak. Kim ko`p to`g`ri javob bersa, rag`batlantiriladi.

## **2. REZYUME (XULOSALASH)**


Li Mun Yolning “Oltin qanotli qush”asari qahramonlari asosida **amaliy ish** – o‘qituvchi o‘quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik

guruhlarga ajratadi;

– o‘qituvchi o‘quvchilarni mashg‘ulotning maqsadi va o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog‘ozning yuqori qismida yozuvi bo‘lgan, ya’ni asosiy muammo, undan ajratilgan o‘quv muammolari va ularni yechish yo‘llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi:

<b>“Oltin qanotli qush” qissasi qahramonlariga tavsif</b>					
<b>Ko chjuk</b>		<b>Sok Tam</b>		<b>Chxve Un Gok</b>	
Afzalli gi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Xulosa					

### 3. “MOYCHECHAK” TEXNOLOGIYASI



**QOIDASI:** Ushbu texnologiyaga qo`yiladigan savolning bir necha to`g`ri variantlari bo`lishi lozim. Moychechakning o`rtasiga asosiy savol qo`yiladi. Gulbarglariga esa javoblar yoziladi.

Savol: “Oltin qanotli qush” asari qahramonlarini yozing.

Javob:Ko Chjuk,Sok Tam,Chxve Un Gok,Me Xyan,Chxu Su.

### 4. “MUSIQIY TANAFFUS” METODI.

Bu metodda o`qituvchi tomonidan koreys millatining biror qo`shig`ini kompyuterda qo`yib beradi.Qo`shiq tugaguncha o`quvchilar koreya haqida va asar haqida bilgan ma`lumotlarini yozishi kerak.Bu topshiriq guruh yoki yakka tartibda ham bajarilishi mumkin.



## 5. “AUKSION” METODI.

Auksionga o‘qituvchi tomonidan biror koreys yozuvchisining kitobi qo‘yiladi. O‘qituvchi tomonidan boshlang‘ich narx aytiladi. Masalan, 100 so‘m. Auksion shrtlari muvofiq o‘quvchilar kitobni narxlaydilar. Doskaga oxirgi narx yoziladi. Masalan 1000 s‘m. Shundan so‘ng o‘qituvchi bolalarga savollar beradi. Har bir savol o‘z narxiga ega. Masalan:

1. Li Mun Yolning qanday asarlarini bilasiz -----500 so‘mlik savol.
2. “Oltin qanotli qush” asarida qanday g‘oya ilgari surilgan -----700 so‘mlik savol.

Shu tariqa o‘quvchilar yig‘gan so‘mma oxirida jamlanadi. Kim 1000 so‘m yig‘gan bo‘lsa kitob va “5” baho bilan baholanadi.



### 3.2.Ochiq dars ishlanmasi.

Darsning maqsadi:

1. Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga o'zbek va koreys adabiyoti haqida kerakli bilimlar berish.
2. Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash.
3. Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kompetensiya:

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:** darslik materiallaridan va televizor, radiodan zarur ma'lumotlarni topa olish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:** mustaqil o'qib o'rganish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:** sinf va sinfdan tashqari ishlarda faol ishtirok etish.

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Nutqiy kompetensiya** (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*):o'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni tinglab tushuna oladi va topshiriqlarini bajaradi;

**Lingvistik kompetensiya:** mavzuga oid soʻzlar va iboralarni ogʻzaki va yozma nutqda qoʻllay oladi.

**Darsning usuli:** darslik bilan ishlash, suhbat, savol-javob, qayta xotirlash, izlanuvchanlik, ijodiy.

**Darsning jihozi:** Darslik, savol yozilgan koʻrgazmalar, pinbord doska, turli rasmlar, tarqatmalar, audio va video vositalar, bir nechta konvert.

**Darsning shiori:** Azob-uqubatsiz iqtidor qalbning haqiqiy asoslar sari yoʻliga toʻsiq boʻladi.(Li Mun Yol).

**Darsning rejasi:**

I. Tashkiliy qism: - 3 daqiqa;

II. Oʻtilgan mavzuni soʻrash: - 9 daqiqa;

III. Yangi mavzu bayoni: -10 daqiqa

IV. Mavzuni mustahkamlash:

1-shart: “Moychekak”ni toʻldirish - 5 daqiqa;

2-shart: Darslik yaqin yordamchi - 6 daqiqa;

3-shart: “Maʼlumotni toʻldiring!” - 4 daqiqa;

4-shart: Mustaqil ish: “Tabiatga sayohat” - 5 daqiqa;

**Dars yakuni:** - 3 daqiqa.

**Dars mavzusining rejasi:**

**1.Li Mun Yol hayoti va ijodi.**

**2. “Oltin qanotli qush”asarida aks etgan tarbiyaviy tushunchalar.**

**3. Li Mun Yol hikmatlari.**

**Darsning borishi:**

**O‘tilganlarni so‘rash:** O‘tilgan dars mavzusi: “Oltin qanotli qush” asari.

Dastlab o‘quvchilardan biri asar haqida ma’lumot beradi. Doskaga quyidagi so‘zlar yozilgan bo‘ladi:

Ли Мун Ёль

ОЛТИН  
ҚАНОТЛИ  
ҚУШ

Қисса



ТОШКЕНТ  
"DAVR PRESS" НМУ  
2016

Alanga ichida nihoyat qush ko‘rindi . Uning boshida — “Istaklar ijrosi duri”. U olov purkaydi va ajdaxolarni yeydi. U hamma tomonidan dengizlar bilan qurshalgan Sumeru tog‘ida yashaydi. Bu qush — Budda qonunini qo‘riqlaydigan sakkizta ilohning beshinchisidir. O‘quvchilar ushbu hikmat asosida asar mazmuni yuzasidan baxs – munozara qilishadi.

### **REZYUME (XULOSALASH).**

Li Mun Yolning “Oltin qanotli qush” asari qahramonlari asosida **amaliy ish** – o‘qituvchi o‘quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

– o‘qituvchi o‘quvchilarni mashg‘ulotning maqsadi va o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog‘ozning yuqori qismida yozuvi bo‘lgan, ya’ni asosiy muammo, undan ajratilgan o‘quv muammolari va ularni yechish yo‘llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi:

<b>“Oltin qanotli qush” qissasi qahramonlariga tavsif</b>					
<b>Ko chjuk</b>		<b>Sok Tam</b>		<b>Chxve Un Gok</b>	
Afzalli gi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi

Xulosa				
--------	--	--	--	--

### “MUSIQIY TANAFUS” METODI.

Koreys millatining “Jumong” serialiga sauntrek qilib ishlangan qo‘shig‘ini kompyuterda qo‘yib beramiz. Qo‘shiq tugaguncha o‘quvchilar koreya haqida va asar haqida bilgan ma’lumotlarini yozishi kerak. Bu topshiriq yakka tartibda bajariladi. Ajratilgan 5 minut davomida yozilgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan yig‘ishtirib olinadi.

#### **Yangi mavzu bayoni:**

#### **Doskaga quyidagi hikmatli so‘zlar yopishtirib qo‘yiladi.**

1. Azob-uqubatsiz iqtidor qalbning haqiqiy asoslar sari yo‘liga to‘siq bo‘ladi.
2. Bu hikmatning ma'nosi shunday: moviy dengizga otilib, ajdahoni yulib oladigan va ko‘kka o‘qday otiladigan Oltin kanotli qush kabi shijoatli bo‘l; xushbo‘y hidini anqitib, daryodan shoshmay kechib o‘tayotgan fildek qat‘iy bo‘l.
3. Olxo‘ri butun umri bo‘yi sovuqqotsa ham, xidini sotmaydi.
4. Orxideyalarining yalang‘och ildizlari — halok bo‘lgan mamlakatga motam ramzidir.
5. Yozuv shaklida birinchi qoida quyidagidan iborat bo‘lishi kerak: avvaliga qalbingni hamma bexalovatliklardan xalos qil, keyingina qo‘lingga mo‘yqalam ushla. Sening xarakatlaring falakning aylanishi kabi bo‘lishi kerak: samoning o‘rtasida osmonning o‘qi joylashgan. Uning atrofida aylanish ro‘y beradigan janubiy qutbi va shimoliy qutbi bo‘lgani kabi muyqalamning xarakati qo‘l

panjalari bilan, qo‘l panjalari harakati barmoqlar bilan, barmoqlarning harakati bilak bilan, bilakning harakati qo‘ll bilan, qo‘lning harakati yelka bilan amalga oshiriladi — tananing butun o‘ng yarmi xarakati shu tarzda sodir buladi.

6.Buni yuz marta yozib chiqsang — husnixating boshqalarga namuna bo‘ladi; buni ming marta yozib chiqsang — maqtoov eshitasan; buni o‘n ming marta yozib chiqsang — seni mashhur xattot deb atashadi.

7.Budda holatida o‘tirish Budda bo‘lishni anglatmaydi, biror vositasiz ajdahoni tuta olmaysan. Faqat ko‘p marta urinishlardan keyingina biror narsani eplay olasan.

Koreya davlati urf-odatlaridan kelib chiqib hikmatlar mazmuni o‘quvchilarga tushuntirib beriladi.

**Mavzuni mustahkamlash:**

Mavzuni mustahkamlashda o‘quvchilardan hikmatlar haqidagi fikr va mulohazalari so‘raladi.

**Baholash:** o‘quvchilar darsdagi ishtiroklariga qarab reyting asosida “5”, “4”, “3” baholar bilan baholanadilar.

**Uyga vazifa:** “Hikmatlarda aks etgan tarbiyaviy tushunchalar” mavzusida insho yozib kelish.



## UMUMIY XULOSA VA METODIK TAVSIYALAR.

Respublikamizning birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov juda to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "Adabiyot milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi" degan g'oyat purma'no g'oyani ilgari surgan. Shunday ekan, adabiyot o'rgatish undan faxr tuyg'usini shakllantirish biz yosh kadrlarning zimmasidadir.

Shunday ekan mukammal ta'lim tizimi orqali Respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab-yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalash uchun o'z ustida ishlaydigan kadrlar kerak.

Ta'limning samaradorligini oshirish o'z o'rnida yoshlarning ta'lim markazida bo'lishini va ularning mustaqil bilim olishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu yo'lda ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallagan kadrlar talab etilishi bilan bir qatorda ularning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan mutaxassislar zarur. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish keng yo'lga qo'yilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni xam o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. «Eshitganimni yoddan chiqaraman, ko'rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib yetaman»,- degan edi buyuk faylasuf Konfutsiy. Shunday ekan adabiyot darslarida jahon adabiyoti namunalarini qo'llash o'quvchilarda mustaqil fikrlashni, o'z ustida ishlashni, bugungi yutuqlari bilan qotib qolmaslikni ta'minlaydi.

**Taklifim:** Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida koreys adabiyoti namunalari kiritilishi va bu millat adabiyoti namunalari qoʻshimcha adabiyot sifatida oʻrgatilishi maqsadga muvofiq boʻlar edi. Asarlarni oʻrgatishda zamonaviy innovatsion vositalardan foydalanish zarur, bundan tashqari, oʻquvchilarni turli sayohatlarga masalaga doir oʻqitishning koʻproq badiiy asrlar bilan bogʻliq holda olib borilishi, shuningdek, amaliy mashgʻulotlarga asosiy urgʻu berilishi yoʻlga qoʻyilsa, taʼlim sifati yuqori darajaga oʻsar edi. Chet davlatlar adabiyoti, taʼlim tizimi va maʼdaniyatini oʻrganib va uni amaliyot jarayonida qoʻllab har bir oʻqituvchi oʻzining metodikasini ishlab chiqish kerak.

**Konfutsiy hikmatlaridan birida shunday deyiladi: “Biz donolikka uch yoʻl bilan borishimiz mumkin: birinchidan, fikrlash yoʻli bilan, bu – eng oqil yoʻl; ikkinchidan, taqlid yoʻli bilan, bu – eng oson yoʻl; uchinchidan, tajriba yoʻli bilan, bu – eng qiyin yoʻl.**

Mana shu hikmatalarga asoslanib biz Koreya adabiyotini maktab darsliklariga qoʻshimcha adabiyot sifatida kiritishni tafsiya qilamiz. Li Mun Yolning “Oltin qanotli qush” asarini esa, 10- sinf adabiyot darsligining “Jaxon adabiyoti” boʻlimiga kiritish, asar bilan oʻquvchilarni tanishtirishni tafsiya qilamiz. Chunki asar yuksak darajadagi falsafiylik bilan yozilgan. Oʻquvchilar asar mazmuni va mohiyatini yosh doiralaridan kelib chiqadigan boʻlsak, anglab yeta oladilar. Asar ularni kelayotgan kasb tanlash jarayonida mustaqil ishtirok etishiga va oʻzlari sevgan mashgʻulot bilan shugʻullanishga koʻmaklashadi. Hikmatlar tarbiyaviy ahamiyatga ega. Li Mun Yol hikmatlaridan maktab darslarida oʻquvchilarni fikrlash ongini oʻstirish uchun foydalanish maqsadga muvofiqdir.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

### **I.O‘zbekiston Respublikasi qonun va qarorlari:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Таълим тўғрисида. Меъёрий-ҳуқуқий ва услубий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: “Истиқлол” нашриёти шўъба корхонаси бош таҳририяти, 2004
2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида. Меъёрий-ҳуқуқий ва услубий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: “Истиқлол” нашриёти шўъба корхонаси бош таҳририяти, 2004.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv darsturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili(5-9-sinflar). – T.: 2010.

### **II.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari :**

- 1.Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.–Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
- 2.Karimov I.A. Vatan va xalq mangu qoladi. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. –B. 136.

### **III.Asosiy adabiyotlar :**

- 1.Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 560 b.
- 2.Boltaboyev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992. – 104 b.
- 3.Duysenbayev O. O‘tkir Hoshimov ijodida ona obrazi. Fil.fan.nomz.diss.avtoreferati. - Toshkent, 2012, 26 b.

4. Hozirgi o'zbek adabiyotining milliy o'ziga xosligi. -Toshkent: Fan, 1984. – 200 b.
5. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. – 196 b.
6. Haqqul I. E'tiqod va ijod. – Toshkent: Fan, 2007. – 248 b.
7. Haqqul I. Ijod iqlimi. – Toshkent: Fan, 2009. – 388 b.
8. Hoshimov O'. Tanlangan asarlar. Qissalar, sahna asarlari, hikoyalar. I jild. – Toshkent: SHarq, 2009. 448 b.
9. Hoshimov O'. Tanlangan asarlar. Qissalar, hikoyalar, hajviyalar, o'ylar. II jild. – Toshkent: SHarq, 2009. 448 b.
10. Hoshimov O'. Hadikli tushlar. Saylanma. Ikki jildlik. 2-jild. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 2002. -447 b.
11. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. –Toshkent: Adabiyot va san'ati, 1989. 544 b.
12. “Innovatsion texnologiyalar o`quv jarayonida” M.T.Eshmuratov.

Toshkent- 2011.

13. Ингёнг О. «Алпомиш» ва «Жумўнг» дostonларининг қиёсий-типологик таҳлили. – Тошкент: «Turon zamin ziyo», 2014.
14. Ингёнг О. «Жумонг» дostonида қаҳрамоннинг халқ билан боғлиқлиги // Filologiya masalalari. – Тошкент, 2011. – 4-сон. – Б. 34–40.
15. Ингёнг О. «Алпомиш» ва «Жумўнг» дostonларидаги кураш мотивининг қиёсий-типологик таҳлили // Ilm sarchashmalari – Урганч, 2012. 4-сон. – Б. 64–68.
16. Ингёнг О. «Алпомиш» ва «Жумўнг» дostonларида ёй отиш мотиви // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – 1-сон. – Б. 64–67.

17. Ингёнг О. «Алпомиш» ва «Жумўнг» дostonларида қаҳрамонларнинг ғайритабиий ҳолатда туғилиши ва исм қўйиш // «Adabiy ta'lim va yoshlar tarbiyasi» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materallari – Toshkent, TDPU, 2011. – Б. 121–125. Toshkent-2011.
18. “Jahon adabiyoti” jurnali 2002 - 2006-yillar.
19. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. (Birinchi kitob) Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 536 b.
20. Li Mun Yol “Oltin qanotli qush” Toshkent, “DAVR PRESS” NMU, 2016.
21. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: ShHarq, 2007. – 352 b.
22. Nishonova S. Adabiyot darslarida tasviriy san'at materiallaridan foydalanishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati G`G` "O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasini takomillashtirish" to‘plamida. – T.: O‘zPFITI, 1983. – B. 69-76.
23. Қосимова М. Бадиий асар қаҳрамонлари характери ни портретлар таҳлили воситасида ёритиш // Ўзбек мактабларида она тили ва адабиёт дарслари самарадорлигини ошириш: Илмий асарлар тўпламида. – Т.: ЎзПФИТИ, 1990. – Б. 85-89.
24. Rasulov A. Ardoqli adib. – Toshkent: Sharq, 2001. -128 b.
25. Rasulov A. Badiiylik –bezavol yangilik. -Toshkent: Sharq, 2007. -336 b.
26. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi 2000-2018-yillar.
27. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi 2005- 2008-yillar.
28. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: O‘qituvchi, 1996.-30 -34- b.
29. Sharafiddinov O. O‘tkir Hoshimov. Adabiy portret. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi dasrligi. -Toshkent: Fan, 1999. – 160 b.
30. Sharafiddinov O. El ardog‘idagi adib. «Ikki eshik orasi» romanining VII nashriga so‘nggi so‘z. -Toshkent: Adabiyot va san’at, 2000. – 436 b.

#### **IV. Internet saytlari:**

1. <http://www.dissercat.com>.
2. <http://www.google.uz>
3. <http://www.kitob.uz>
4. <http://www.adiblar.uz>
5. [www.ziyouz.com.kutubxonasi](http://www.ziyouz.com.kutubxonasi).
6. [www.google.uz](http://www.google.uz) va [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) .